

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

**TARIX FAKULTETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha) ta'lif yo'nalishi
IV kurs bitiruvchisi
XASANOV BEGZODNING**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: 1920-30-yillarda sovet hokimiyatining O'zbekistonda
yuritgan madaniy siyosati**

Ilmiy rahbar:

**BOZOROV Q.
katta oqituvchi**

ANDIJON – 2018

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| KIRISH | 3 |
| I BOB. 1920-1930 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MADANIY INQILOB SIYOSATI «SHAKLAN MILLIY VA MAZMUNAN SOTSIALISTIK» MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHLISHI..... | 10 |
| I.1. 1920-1930 yillarda O'zbekistonda fan, adabiyot va san'at..... | 10 |
| I.2. Sovetlar hukumatining islom diniga munosabati..... | 26 |
| II BOB. SOVET HUKUMATINING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN TA`LIM SOHASIDAGI DASTLABKI ISLOXOTLARI VA UNING NATIJALARI..... | 32 |
| II.1. "Sovet maktablari"ning tashkil topish jarayoni..... | 32 |
| II.2. 30 – yillarda sovet hukumatining O'zbekistonda amalga oshirgan ta`lim sohasidagi isloxotlari va uning natijalari | 48 |
| XULOSA | 62 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 65 |

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi. 1991-yilga kelib xalqimizning asriy orzulari ro`yobga chiqdi, O`zbekiston mustaqillikka erishdi. Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi islohotlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a`zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g`oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. Istiqlol yillarida O`zbekiston tarixining ko`pgina masalalari o`zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqqoni yechimini topa boshladi. Bu ayniqsa, bir necha o`n yillar davomida soxtalashtirilib, bir yoqlama talqin qilib kelingan sovet davri tarixini o`rganishda yaqqol ko`zga tashlanadi.

O`zbekiston davlat suverenitetiga erishganidan keyin o`zbek xalqi tarixini, avvalo, mamlakat tarixshunosligida buzib ko`rsatilgan sovet davri tarixini milliy mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan tanqidiy mushohada qilish uchun zarur shart-sharoit yuzaga keldi.

O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tarixiy xotira to`g`risida – “Tarixiy xotira tuyg`usi to`laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o`tgan yo`l o`zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo`qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoni o`rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo`ladi,”¹ – deya haqli ravishda qayd etgan.

I.A. Karimov tarix xaqida o`z fikrlarini davom ettirib, “Tarixdan ibrat olib yashah, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o`ng tomonga ham, chap tomonga ham og`masdan, faqat haqiqat vaadolat nuqtai nazaridan yo`l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli o`gu kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg`itadi” deb “Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” asarida qayd etganlar².

Vatanimiz tarixining sovet mustamlakachiligi davri bilan bog`liq sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, xalqimiz ma`naviyatining yuksalishida tadqiq etilayotgan sovet

¹ Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – B. 97.

² Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – B.112.

davri tarixini hozirgi mustaqillik davri bilan qiyosiy taqqoslash milliy istiqlolni yanada munosib qadrlash imkonini beradi. Zero, erkin va farovon hayotni yuksak ma`naviyatsiz qurib bo`lmaydi.

Ma`lumki, sovet hokimiyati va kommunistik partianing hukmronligi yillarida ma`naviy-siyosiy, mafkuraviy yakkahokimlik tufayli tarixchi olimlarning haqiqatni yoritish imkoniyati yo`q edi. Milliy istiqlol yillarida Vatanimiz tarixini haqqoniy, ilmiy asosda o`rganish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta`kidlaganidek, “O`z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo`lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo`q. Ko`p asrlik tarixi mobaynida O`zbekiston qancha bosqinlarni ko`rmadi, Markaziy Osiyo mintaqasi qanday bo`ronlar ichida qolmadı, kimlar bizni tobe va qaram qilishga intilmadi. Ana shu tarixdan saboq chiqarmasak, ertaga kechagi kun ko`rgiliklari qaytadan boshimizga tushib qolishi hech gap emas. Boshqacha aytganda, kechagi kundan to`g`ri xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat keljakka ishonch bilan qadam qo`yadi”¹.

O`zbekiston Respublikasida mustaqillik tufayli ma`naviy tiklanish va o`zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash uchun ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Jamiyat taraqqiyotini ta`minlashda, ayniqsa, yuksak ma`naviyatga erishish yo`lida belgilangan maqsad va vazifalar, ta`lim islohotlarining davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi, O`zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi² va “Ta`lim to`g`risidagi Qonun” amaliyoti muhim ahamiyatga molik bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta`kidlaganidek, “Kadrlar tayyorlash bo`yicha Milliy dastur tasodifan paydo bo`lgani yo`q – bu aynan shu xalqimizning qon-qoniga singigan ma`rifat qonuniyatining davomi bo`lib, ma`naviy jihatdan mukammal rivojlanish insonni tarbiyalash, ta`lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish

¹ Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқук ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 219.

² Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 106.

g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo`lib qoldi”¹.

Ta`lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, dastur va qonunlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda bu borada Turkistonda asrlar davomida rivojlanib kelgan boy tajriba maktabini o`rganish, tegishli saboq chiqarish, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma`naviy-axloqiy qadriyatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo`lib, ularni shakllantirishda an`anaviy ta`lim tizimi muhim rol' o`ynagan. Jahon ilm-faniga Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farobi kabi buyuk mutafakkirlarni yetishtirib bergen mintaqadagi an`anaviy ta`limning so`nggi o`rta asrlarga kelib qoloqlikka yuz tutish sabablari, ularga ta`sir etgan omillar, oqibatlari xolisona tahlil etilmadi.

Zero, O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti e`tirof etganidek, “... ota- bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo`lmish ilmu ma`rifat, ta`lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan”²

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so`ng, turli sohalar kabi ta`lim sohasiga, malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy e`tibor berilmoqda. Bu esa hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotga qarorlar, farmonlar, qonunlar, dasturlar va amalga oshirilayotgan isloxtatlarda nomoyon bo`lmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g’risida” 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli farmoni¹ asosida 2017 – 2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Xarakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal

¹ Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи сессияси мажлисидаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 1995. – 24 февраль.

² Каримов И. А. Йоксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 60.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони / Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль. 28 (6722)-сони.

rivojlanishini ta`minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. Harakatlar strategiyasida O`zbekiston Respublikasini 2017 – 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustivor yo`nalishi belgilangan². Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to`rtinchi yo`nalishning 4.4.- bandi “Ta`lim va fan sohasini rivojlantirish” deb nomlangan.

O`lkamizda an`anaviy ta`lim tizimidan “sovet maktablari”ga o`tish jarayoni tarixiy adabiyotlarda umumlashtirilgan holatda, cheklangan doirada, maishiy shakllarda ta`riflandi, ularni tubdan isloh etish harakatlari chuqur yoritilmadi, arxiv fondlari, qo`lyozma asarlar, davriy adabiyotlarda mazkur muammoga oid muhim tarixiy manbalar e`tibordan chetda qoldi, ilmiy iste`molga kiritilmadi.

Muammoning tarix fanida hozirgacha o`zining chuqur ilmiy va xolisona bahosini olmaganligi, ushbu muammoga oid ko`plab tarixiy manbalar hanuzgacha o`rganilmaganligi, ular orqali ijtimoiy, ma`naviy vokelikniig ko`plab masalalariga oydinlik kiritishga erishish mumkinligi o`rganilayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining o`rganilganlik darajasi. Tarixiylik nuqtai nazaridan mazkur mavzuning ayrim jihatlari alohida holda tadqiq etilgan maqolalar bilan cheklangan bo`lib, yahlit tarzda ilmiy o`rganilmagan.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda sovet hukumati davrida yaratilgan adabiyotlar alohida o`rin tutadi. Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, Sadreddin Ayniy, Sadri Ziyo, I.I. Umnyakov, V.V. Bartol'd, T N. Qoriniyozov, O.K. Suxareva, K.E. Bendrikov, I.M. Mo`minov, A.M. Bogoutdinov, V.B. Lunin, M.Abdullayev, G.M. Bilolov, A.I. Ishanov, Y.Abdullaev, I.Irgashev, A.Muhammadjonov, Sh.Ismoilov, L.I. Abdusamadov, N.M. Rahmonov, B.Qosimov, R.Rahimov, E.Karimov, X.Boltaboyev, P.Mirzahmedova, D.Rashidova, N.Karimovlarning asar, adabiyot, dissertasiya, maqolalarida XX asr

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли [Фармонига](#) 1-илова. / Lex UZ.

20 – 30-yillarda O`zbekistonda ta`lim tizimining ahvoli, bu sohadagi isloxoxtlar xaqida qimmatli ma`lumotlar berilgan¹.

Mustaqillik yillariga kelib hurfikrlilik, hukmron mafkura tazyiqlaridan xalos bo`lib, ilgari mahfiy tutilgan tarixiy manbalardan foydalanish imkonini tarixiy haqiqatni tiklashda muhim rol’ o`ynadi. By davrda o`rganilayotgan masalaning mohiyati, mazmuniga yangicha yondashuvlar shakllanib, uni xolisona baholash dolzARB ahamiyat kasb eta boshladi. Ushbu davr tadqiqotchilarini qatoriga R.Shamsutdinov, T.Orifjonov, D.A. Alimova, G.Solijonova, R.H. Karimov, Q.Rajabov, Sh.Hayitov, R.Sharipov, U.Dolimov, G.Tursunmetova, D.Ziyayeva va boshqalarning tadqiqot, asar, adabiyot va maqolalarida XX asr 20 – 30-yillarda O`zbekistonda madaniy hayot ta`lim tizimi, bu sohadagi isloxoxtlar, ularning natijalari, sovet davrida an`anaviy ta`lim tizimidagi muammolar, ularning sabab va oqibatlari yoritib berishga xarakat qilingan¹.

¹ Фитрат А. Ўзбек адабиёти намуналари. Биринчи жилд. – Самарқанд –Тошкент, 1928.; Хўжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Т.: Узгосиздат, 1926. – 78; O’sha muallif. Бухоро инқилобининг тарихига доир. – Т.: Ўздавнашр., 1926. – 126.; Айний С. Бухоро инқилоби учун материаллар. – М., 1926. – 148 б.; Вохидов Ш., Чориев З. Садри Зиё к его библиотека (Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века). – Т.: Янги аср авлоди. 2008. – 352 с.; Умняков И. И. К истории новометодной школы в Бухаре // Бюллетень САГУ. – Ташкент, 1927. – С. 98-99.; Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград; АН СССР, 1927. – 256 с.; O’sha muallif. Бухара. Её памятники и их судьба / Сочинения. – М.: Наука, 1966. и 9 томах. Т.IV. – 72 с.; Қориниёзов Т. Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т.: Фан, 1956. – 510 б.; Сухарева О. К. Истории городов Бухарскою ханство. – Т.: АН Уз ССР, 1958. – 57 с.; Бендриков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865 – 1924). – М., 1960. – 592.; Мўминов И. М. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан. – Т.: ЎзРФА., 1960. – 288 с.; Богоутдииов А. М Очерки по истории таджикской философии. – Сталинабад: Таджикгоапдат, 1961.; Лунин В. Б. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Фан, 1968. – 408 с.; Билолов Г. М. Хоразмда ҳалқ маъорифи тараққиси. – Т.: Ўқитувчи, 1969.; Ишанов А. И. Бухарская Народная Советская Республика. – Т.: Узбекистан, 1969. – 392 с.; Абдуллаев Й. Эски мактабда ҳат-савод чиқариш. – Тошкент, 1966. – 149 с.; O’sha muallif. Очерки по методике обучения грамоте в узбекской школе. – Т.: Учитель, 1966. – 160 с.; Мухаммаджонов А. Школа и педагогическая мысль узбекского народа XIX - начале XX века. – Ташкент, 1981.; Исмаилов Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX начале XX века. – Ташкент, 1981.; Абдусамадов А. И. Социал тараққиёт ва ислом. – Т.: Ўзбекистон, 1984. – 151 б.; Қосимов Б. Абдурауф Фитрат – ҳалқ фарзанди // Саодат. – Тошкент, 1989.; Каримов Э. Фитратнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкен, 1990. – № 3. – Б. 45.; Болтабоев Х. Номаълум Фитрат // Ёшлиқ. – Тошкент, 1990. – № 4. – Б. 34-37.; Мири-Ахмедова П., Раширова Д. Ҷадиды: кто они? // Звезда Востока. 1990. – № 9. – С. 138-139; Каримов Н. Жадидчилик нима? // Санъат. – Тошкент. 1990. – №12. – Б. 5-10.

¹ Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи (XIX аср охири XX аср бошлари). – Андижон: Андижон давлат университети, 1995. – 152 б.; Орифжонов Э. К. XX аср бошида Бухоро амирилиги ҳалқ таълимидаги ўзгаришлар ва муаммолар. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1997. – 59 б.; O’sha muallif. XX аср бошида Бухородаги жадид мактаблари // Ҳалқ таълими. – Тошкент, 1997. – №3. – Б. 50-53; Алимова Д. А. Жадидчилик мустақиллик даври тарихчиси талқинида / Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар миллый мустақилликка қадар. Давра сұхбати материаллари. – Т.: Элдинур, 1998. – Б. 3-10; Салижанова Г. Ф. Учебно-просвітительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX начало XX в.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1998. – 28 б.; Каримов Р. X – XIX аср охири – XX аср бошлари Бухорода маданий ҳаёт / Бухоро тарих саҳифалари. – Бухоро, 1999. – Б. 182-190; Ражабов Қ. Жадидлар – истиқолчилик харакатининг ғоявий раҳнамолари/ Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi XX asr 20 – 30-yillarida sovet hukumatining O`zbekistonda amalga oshirgan madaniy siyosati va uning oqibatlarini ilmiy jihatdan o`rganish va tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

Ko`zlangan ushbu umumiyligi maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi:

- boshlang`ich ta`lim holati, muammolari, o`quv jarayoni va moddiy ta`minotini yoritish va ilmiy xulosa qilish;
- “sovet maktablari”ning tashkil etilishi, faoliyati va asosiy maqsadlari va mohiyatini yoritish;
- O`zbekistonda “madaniy inqilob”, ta`lim tizimidagi o`zgarishlar va muammolar;
- Fan, adabiyot va san’atning yangicha yo`nalishdagi taraqqiyoti;
- mavzuga oid adabiyotlarni o`rganish va tahlil etish natijasida xulosalar chiqarish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini o`rganish va tahlil qilishda dialektikaning umumfan – mantiqiy, tizimli yondashuv va analiz-sintez uslublari hamda maxsus tarixiy – tarixiy-genetik, xronologik va tarixiy qiyoslash uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy bilmoqning xolislik, sababiylilik (determinizm), tarixiylik va tizimlilik (sistemali) tamoyillaridan ham foydalanildi. Turli manba va ma'lumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda voqealar tarixiylik, tadrijiylik, sivilizatsion yondashuv usullari asosida umumlashtirildi va tahlil etildi.

миллий мустакилликка қадар. Давра сухбати материаллари. – Тошкент: Элдинур, 1998. – Б. 24; O’sha muallif. XX asr бошларида Туркистон ёшлари // Хукуқ ва бурч. – Тошкент, 2008. – №1. – Б. 40-43; – № 2. – Б. 35-37; O’sha muallif. Файзулла Хўжаев. – Т.: Abu maibuot konsalt, 2011. – 48 б.; Ражабов К., Ҳайитов Ш. Усмон хўжа. – Т.: Abu matbuot konsalt, 2011. – 36 б.; Шарипов Р. Туркистон жадидчилик харакати тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 176 б.; Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – 125 б.; O’sha muallif. Эски мактаб // Тафаккур. – Тошкент, 2010. – № 1. – Б.66-73.; Турсунметова Г. XX asr бошларида Туркистон таълим-тарбия тизимида жадид мактаблари / Тарихий хотира маънавият асоси. – Бухоро, 2008. – Б. 227-228; Зияева Д. XIX asr охири – XX asr бошида Туркистонда анъанавий таълим тизими муаммолари. – Т.: Ислом университети илмий - таҳлилий ахбороти, 2009. – №1. –Б. 10-12; O’sha muallif. XX asr бошида Ўзбекистонда анъанавий маданий ҳаёт // XX asrda Ўзбекистонда маданият тарихидан очерклар: анъаналар ва трансформация жараёнлари. – Тошкент, 2010. – Б. 3-30.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy ko`rsatmalar, turli tadbir, marosim va tantanalarida so`zlagan nutqlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida belgilangan muhim vazifalar haqidagi ko`rsatmalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi ma`lumotlaridan umumiyl o`rta ta`lim maktablari, akademik liseylar, o`rta maxsus kasb-hunar kollejlarida tarix fani darslarida, o`lka tarixini o`rganishda, oliygoohlarning Tarix yo`nalishlari talabalari uchun “O`zbekiston tarixi” fanidan ma’ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg’ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to’rt bo’lim, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. 1920-1930 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MADANIY INQILOB

SIYOSATI «SHAKLAN MILLIY VA MAZMUNAN SOTSIALISTIK»

MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHLISHI

I.1. 1920-1930 yillarda O'zbekistonda fan, adabiyot va san'at

O'zbekistonda «madaniy inqilob» siyosati «shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyatni rivojlantirish qobig'iga o'rabi amalga oshirildi. Albatta bu Sovetlar Rossiyasining O'rta Osiyoda yuritayotgan buyuk davlatchilik, mustamlakachilik siyosatining tub mohiyatidan kelib chiqar edi. Bu o'lkada qo'nim topgan xalqlarda esa eng ulug' va olajanob g'oyalar qadimdan qaror topgan. Bu yuksak darajada rivoj topgan vatanparvarlik, elparvarlik, mardlik, jasurlik, imon-e'tiqodlilik, milliy va diniy qadriyatlarga sodiqlik, erk, hurlik va ozodlikka tashnalik, bosqinchilar, mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafrat kabilardir. Sovet bosqinchilari bunga 1917-1934 yillarda Turkiston xalqlarining milliy istiqlol va ozodlik uchun olib borgan kurashlarini o'z ko'zlar bilan ko'rib ishonch hosil qildilar. Shuning uchun ham mamlakatimiz halqlariga xos bo'lган ana shu olajanob va ulug' fazilatlarni ularning ongidan siqib chiqarmasdan turib Turkistonni o'z asoratlarida uzoq saqlab qololmasliklarini bosqinchi jallodlar yaxshi tushunar edilar. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa tub erli muslimmon aholini tarixidan, tilidan, madaniyati va asrlar osha shakllangan milliy, diniy qadriyatlaridan begonalashtirish va mahrum qilish lozim edi. «Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyat uchun kurash daturi xuddi ana shu mudhish vazifani bajarishga xizmat qildi. Mehnatkashlar ommasi ongiga ma'naviy ta'sir qilishning barcha vositalari: Maorif, fan, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari kabilar orqali ular ongida barcha milliyliklar siqib chiqarilib, «sotsialistik», «baynalminalchilik» qobig'iga o'ralgan, aslida esa qullik, tobelik, itoatkorlik, ruslashtirish-assimilyatorlik mafkurasini bosqichma-bosqich sistemali tarzda singdirib borildi.

Fan. Sovetlar hukumati O'zbekistonda mustamlakachilik tartib qoidalarini mustahkamlash, Kompartiya mafkurasini keng omma o'rtasida tarqatishda fan,

ilmiy tadqiqot yutuqlaridan ustamonalik bilan foydalandi. 1932 yilda tashkil etilgan fan qo'mitasi ana shu vazifalarga safarbar qilindi. Respublikada tashkil etilgan Gidrometeorologiya instituti, fan qo'mitasi huzuridagi Geliotexnika laboratoriysi va Toshkent astronomiya observatoriyasi huzurida quyoshni o'rganish bo'limining tashkil etilishi, irrigatsiya melioratsiya, tuproqshunoslik, agrotexnika va selektsiya, kimyogarlik, geologiya va mineralogiya va boshqa sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari qanday maqsadlarni ko'zda tutganligi endilikda hech kimga sir emas.

1940 yilda SSSR FAsining O'zbekiston filiali tashkil etildi. U respublikadagi 55 ta ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qildi. 1940 yilda O'zbekistonda 109 ta fan doktori va 510 ta fan nomzodlari bor edilar. Barcha ilmiy tadqiqot institatlari faoliyati Moskvadan turib boshqarilardi. Moskva buyurtmasini bajarar va Moskvaga hisobot berar edi. O'zbekistonda ilmiy tadqiqot tili rus tili edi.

20-30 yillarda O'zbekistonda fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan juda ko'p fidoyi olimlar faoliyat ko'rsatdilar. Ana shunday olimlardan biri, o'zbek tarixchilari maktabini yaratgan Po'lat Solievdir¹. U O'zbekistonda, tarix fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi va o'z asarlarini eski o'zbek yozuvi, arab va fors tillarida yaratgan edi. Bu asarlar kutubxonalardan chiqarib tashlangan, g'oyaviy jihatdan buzuq va subutsiz asar sifatida yo'q qilib yuborilgan. Faqat yirik kutubxonalardagina ulardan ba'zi bir nusxalargina saqlanib qolgan. Po'lat Majidovich Solievning bunday asarlari jumlasiga: «Hindiston Angliya hukmi

¹ Пўлат Солиев 1882 йилда Астрахан губерниясининг Зацаревский бўлисидағи Башмаковка қишлоғида ўзига тўқ дехқон оиласида туғилган. У З ёшида онасидан 1919 йилда отасидан жудо бўлган. Пўлат Солиевнинг отаси унинг авлодлари ма'lумотига қараганда Бухоро колониясидан бўлган. Унинг аждодлари асли Тошкент атрофидан чиқкан. Шу боис Пўлат доимо ўз тарихий Ватанига қайтиш иштиёқи билан яшаган. У Қозондаги Мадрасаи Мұхаммадия ва Уфадаги Мадрасаи Фалияни тамомлагач Туркистонга қайтади, қишлоқларда, Тошкент ва Қўқондаги мактабларда дарс беради. Ўзбекистоннинг йирик давлат арбобларидан бири, XК Шўросининг раиси Султон Сегизбоев унинг кўлида ўқиган. Шарқшунос Лазиз Азиззода, театр сан'ати арбоби Маннон Уйғур ундан та'лим ва тарбия олган. Пўлат Солиев икки марта Заки Валидий Тўғон билан учрашган. У Туркистон муҳториятини шакллантиришда фаол қатнашди. «Ел байробги» рўзномасида бош муҳаррир ва «Маориф» ойномасида муҳаррирлик қилди. Самарқанд, Тошкент, Бухоро, Фарғона ва бошқа шаҳарлардаги олий ўқув юртларида профессор сифатида ма'rузалар ўқиди. 1935 йилда Ўзбекистон давлат университетида (Самарқанд) биринчи марта Ўрта Осиё халқлари тарихи кафедраси очилганда Пўлат Соллев унга мудир етиб тайинланган эди. 1936 йилдан у Тошкентда Фан Кўмитасида Ўзбекистон тарихи секциясига бошчилик кила бошалаган. Олимнинг ҳар бир қадамини «Културний» ва «Бўвший» сингари айғоқчи исковучлар кузатган. У жуда кўплаб қўмматли тарихий асарларнинг муаллифидир. 1937 йилда Пўлат Солиев хибсга олинган ва қатағон қилинган. Ҳозирда унинг номи Самарқанд ва Тошкентда абадийлаштирилган, унинг номига кафедра, кўчалар кўйилган.

ostida» (1920, 1926), «Buxoro mang’itlar sulolasi davrida» (1920,1926), «O’rta Osiyo tarixi», 1 qism (1926), «O’zbekiston va Tojikiston. Iqtisodiy va jug’rofik lavha» (1926), «O’rta Osiyoda savdo kapitali davri» (1926) «O’rta Osiyoda Islomning tarqatilishi» (1928), «XV-XIX asr birinchi yarmi O’zbekiston tarixi»¹ va boshqalarni kiritish mumkin.

Po’lat Solievning eng katta xizmatalridan biri-bu «O’zbekiston tarixi» asarini yaratganligi edi. Afsuski 1937 yilda u xibsga olingach bu qimmatli asar ham nom nishonsiz yo’qolib ketdi.

Xullas, 20-30 yillarda Sovetlar hukumati «buyuk sultanat»ga xizmat qiluvchi fan rivojiga izn berar edi, xolos. Boshqacha bo’lishi mumkin ham emas edi.

Adabiyot. Sovetlar hukumati va Kompartiya mustamlakachilik, qullik va itoatkorlik mafkurasini O’zbekiston fuqarolari ongida shakllantirish va qaror toptirishning eng ta’sirchan, vositalaridan biri sifatida adabiyot va badiiy ijod rivojiga katta e’tibor berdi. Bu ish Kompartiyaning hayotda sinalgan g’oyaviy-siyosiy quroli bo’lgan sinfiylik, partiyaviylik va sotsialistik realizm dasturi asosida olib borildi. Bu dasturni amalga oshirishda O’zbekiston Sovet hukumati va kompartiyasi 1928 yilda o’zi tashkil etgan «Qizil qalam» jamiyati tugatildi va uning o’rniga O’zAPP (O’zbekiston Proletar yozuvchilar uyushmasi) tashkil qilindi. 20-30 yillardagi badiiy ijodiyot faoliyatida bu tashkilotlarning o’ziga xos o’rni albatta bor.

Progressiv ko’z qarashdagi jadid ijodkorlar Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Aziziy, Sidqiy Xondaqliqiy, Tavallo, M.So’fizoda, Abdulla Avloniy va boshqalar Oktyabr to’ntarishi g’oyalarini qo’llamasalarda Sovetlar boshqaruv idoralarida ishlab milliy istiqlol manfaatlariga xizmat qilish, millatning dunyoviy siyosiy madaniyatini va saviyasini oshirish uchun kurashni o’z faoliyat maqsadlarining bosh mezoni qilib oldilar. Ana shu maqsad taqozosi bilan ular o’nlab yangi turdagি maktablar

¹ «Турон тарихи». Тўплам.-.: 1993 йил, май, 22-бет.

ochdilar, bu maktablar uchun turli-tuman darsliklar, qo'llanmalar yaratdilar, nashriyotlar tashkil qildilar, chet ellardagi oliy o'quv yurtlariga mahalliy yoshlardan o'qishga jo'natdilar, gazetalar, jurnallar nashr etdilar, teatr san'atini rivojlantirishda jonbozlik ko'rsatdilar, turli tumandagi ma'rifiy-madaniy to'garaklar uyushtirdilar. Albatta bu ishlarga bolshovoy hukmdorlar hayrihoh bo'lgan emaslar. Aksincha jadid ijodkorlarning har bir qadamlarini sinchkovlik bilan kuzatib borganlar. To'garak va jamiyatlar faoliyatini ta'qib va taz'yiq ostiga olganlar, nashr ishlari ustidan qattiq nazorat o'rnatganlar. Jumladan Abdurauf Fitrat «Chig'atoy gurungi»¹ning ayrim majlislari qurolli qizil gvardiyachilarning nazorati ostida o'tganligini yozadi. Xuddi shuningdek, Zaki Validiy To'g'on ham o'zining «Xotiralarim»ida 20-yillarning boshida ziyolilar ustidan qattiq nazorat o'rnatilganligi vajidan Buxoroda Cho'lpon bilan uchrasha olmaganligini eslaydi. Ammo har qanday ta'qib va ta'zyiqqa qaramasdan haq vaadolat yo'lida kurashni davom ettirdilar. Buni biz jadid ijodkorlarning adabiyot sohasidagi ko'p qirrali faoliyatlarida yanada to'laroq ko'ramiz. Ular badiiy ijodning barcha yo'nalishlarida: publitsistika, she'riat, drama, proza kabi sohalarida barakali iz qoldirganlar. O'zbek adabiyotida publitsistika yangi janr (1900 yillardan so'ng paydo bo'lган) bo'lsada, 20-yillarda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu yutuq va muvaffaqiyatlar birinchi navbatda eng avvalo A.Fitrat va Abdulhamid Sulaymon nomlari bilan bog'liqdir. Ular vaqtli matbuot sahifalarida o'nlab publitsistik maqolalar bilan chiqdilar va ularda millat, Vatan taqdiri bilan bog'liq o'ta ehtirosli va dolzarb masalalarni ilgari surdilar. Publitsist jadidlar bosh maqsad qilib xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otishni ilgari suradilar, milliy ongni, milliy vijdonni charx

¹«Чигатой гурунги» уюшмаси 1919 йилда ташкил топган. Унинг фаолиятида Фитрат, Абдулқаюм Рамазоний, Машриқ юсупов-Елбек, Мўминжон Мухаммаджонов (Мўмин Кофир), Маннон Мажидий-Уйғур, Мирмулла Шермуҳаммедов, Лазиз Азиззода, Шорасул Зунун, Фулом Зафарий, Тангриқулхожи Максудий, Маннон Рамз, Маҳмуд Ходиев-Боту иштирок етганлар. Фитрат ва Абулқосим Рамазоний уюшманинг раҳбари эди. Бу уюшма шўроларга қарши курашмаган, унинг дастури ҳам йўқ эди. «Чигатой гурунги»нинг асл мақсади халқнинг умумий маданий савиасини ошириш, саводсизликни тугатиш учун курашиш, ески алифбони ислоҳ килиш, Ўзбек тилининг соғлиги учун кураш, уни ёт сўзлардан тозаламоқдан иборат эди. Ammo ҳар бир миллийликдан ҳадиксирайдиган Шўро ҳукумати «Чигатой гурунги» уюшмаси қатнашчиларига «пантуркизм» ва «миллатчилик» айбини кўйиб уюшмани 1922 йилда тор-мор келтириди. Исте'dодли зиёли Маҳмуд Ходиев- Боту 1930 йилда «Маориф ва ўқитувчи» ойномасининг 10 сонида босилган «Тил ва имло тўғрисида бир неча сўз» мақолосида: Тил ва адабиётда чигатойчилик оқимини қанча қораламоқчи бўлсалар ҳам, бунга муваффак бўла олмайдилар», деган эди (10-бет).

urishini istaydilar, xalqqa o'zligini tanitmoqni orzu qiladilar. Birgina misol: Abdurauf Fitrat 1917 yil 5 dekabrda «Hurriyat» gazetasida e'lon qilingan «Muxtoriyat» maqolasida bunday deb yozadi: «Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, ermiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz emirildi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimlik turdik, sabr etdik, kuchga tayangan har bir buyruqqa bo'ysundik, butun borlig'imizni qo'lidan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yalintirdik, imonlarimizga avrab saqladik: «Turkiston muxtoriyati!»»

Xuddi shuningdek Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham 20- yillarda yozgan publitsistik asarlarida dolzarb muammolarga qalam urdi, mustamlakachilar olib borgan jirkanch siyosatni fosh qildi.

Xalqni ilm ma'rifatga chorlash, milliy mustamlakachilikka nafrat, milliy o'zlikni anglashga da'vat, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otish istagi 20 yillardagi jadidchilik adabiyotining bosh va yo'naltiruvchi mavzusi bo'lган.

S.Ayniy 1919 yilda yozilgan «Turon marshi» deb nomlangan she'rida ham Turonni uyg'otishga chorlaganligining guvohi bo'lamic.

Oktyabr harbiy to'ntarishidan so'nggi davrda H.Hakimzoda Niyoziyning poeziya bobidagi ijodi ko'zdan kechirilsa, u tag'in ham barkamollik sari rivojlanib borganligini kuzatamiz. Bu davrga kelib shoir ilgarigidek faqat ma'rifatga chorlash bilangina cheklanmaydi. U endi qadimiylar Turkistonning ijtimoiy-siyosiy taqdiri to'g'risida bosh qotiradi. Turkiston muxtoriyati g'oyalarini ulug'laydi. Shoiring muxtoriyat g'oyalarini ulug'lovchi va naqoratida «Qutlug' bo'lsin Turkiston muxtoriyati!» deya kuylanuvchi she'ri 1918 yil 2 yanvarda «Ulug' Turkiston» gazetasida chop etilgan edi.

Shoir Tavallo she'riyat bobidagi o'z ijodida hajviya uslubining keng imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalandi, undan yangi tasviriy imkoniyatlar izladi. U poeziyaning shiru shakar janridan mohirona foydalanganholda o'z she'rlarini bir vaqtning o'zida ikki tilda (shu paytga qadar forscha-o'zbekcha yozib olib

kelingan)-o'zbek va rus tilida yozib jamiyatdagi voqeal-hodisalarga o'z munosabatini bayon etadi.

20-yillardagi jadid poeziyasi haqida gap borganda, so'zsiz suratda Abdulhamid Cho'lponni chetlab o'tib bo'lmaydi. U shu yillar davomida o'zining «Uyg'otish» (1922), «Buloqlar» (1924), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) kitoblarini chop ettirdi. Shoirning ko'pgina she'rlari «o'zbek yosh shoirlari» to'plamida, «Adabiy parchalar», «Go'zal yozg'ichlar» kabi kitoblardan joy oldi va xalqning ma'naviy mulkiga aylandi. Bu ijod durdonalari Sovet ruhiyatdan ancha uzoq bo'lib, aksilsoviet ohanglar bilan yo'g'irilgan edi. Buni biz shoirning 1921 yilda yozilgan «Xalq» she'ridagi quyidagi isyonkor satrlarda yaqqol ko'ramiz:

Xalq istagi: ozod bo'lsin bu o'lka,

Ketsin uning boshidagi ko'lanka.

20-yillardagi jadid adabiyoti dramaturgiyada ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu borada Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalarning ijodiy yo'li diqqatga loyiqidir.

Abdurauf Fitratning «Temir sag'onasi», «Abulfayzxon», «Chin sevish», «Hind istilochilar», «Arslon», «Zohaki moron» kabi fojeaviy va drammatik asarlarida xalq orasida katta shuhrat va obro' topdi. U o'zining dramatik asarlarida ham bosqinchilik va mustamlakachilik zulmidan faryod, qiladi. Zolim mustamlakachilarga qarshi kurashda ramziy ma'noda bobokalonimiz Amir Temur hazratlariga murojaat etib, undan madad va yordam so'rab Abdurauf Fitrat «Temir sag'anasi» dramasida o'z qahramoni nomidan bunday deb murojaat qiladi:

«Ulug' hoqonim! Turklik sharafi talandi. Turk uchun qo'ydig'ik davlat bitdi, turk otig'a qurdig'ik xoqonlik yog'maga ketdi. Turkning nomusi, e'tibori, imoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostinda qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yet qo'llarga tushdi. Turkning belgusi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi, jaholat o'ljasiga ketdi. Sening qamching bilan dunyo egasi bo'lgan turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi. Sening omonatingga xiyonat qilganlarni ez, ur o'ldir!

Sultonim! Bilmadim, shu topda sening u yuksak va ulug' ruhiyatning men kabi tuban ruhli va himmatsiz bir bolasining shu holiga g'azabli kulib turibdur.

Bilaman, shu chog'da sening to'lqunli dengizlarga o'xshagan yuraging men kabi yuraksiz bir o'g'lingning shu ko'rinishidan nafrat qiladur. Chunki yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim, sening, Turoningni o'zim talatdim, sening turkingni o'zim ezdirdim, omonatlaringga xiyonat o'zim qildim.

Men uch kunlik umrimni tinchgina yotib o'tkazmoqchi bo'lmasa edim, shularning birortasi bo'lmas edi. Men qo'limga topshirdig'ing qilichni tashlab, cholg'uni olmas edim, Turonim talanmas edi.

Men yolg'iz qonli yosqlarimni bu sag'anangga to'kmak uchun emas, o'z yozuqlarimni iqror etarga keldim, hoqonim. Meni qo'yma! Men yolg'iz yozuqlarimni iqror etarga emas, Turonga berdigim zararlarga to'lamoq uchun keldim, xoqonim. Menden nafrat etma.

Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, menim qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotixangni ber!

Sening dunyoda sig'magan g'ayrutingga ont ichmanki, Turonning eski sharaф va ulug'likini qaytarmasdan burun oyoqdan o'tirmasman (to'xtamasman)¹.

Jadidchilik dramaturgiyasiga Abdulhamid Cho'lpon ham barakali hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Cho'rining isyonи», «Halil farang», «Cho'lpon sevgisi», «Mushtumzo'r», «O'rtoq Qarshiboev», «Hujum», «Yorqinoy» singari dramatik asarlar o'z vaqtida shuhrat topdi. Bu sahna asarlari orasida eng baquvvatlisi va e'tiborlisi albatta «Yorqinoy»dir. Mazkur asarni yozishda ham Cho'lpon o'z e'tiqodi va g'oyaviy dunyoqarashiga sodiq qoldi. U hayotda inson uchun eng ardoqli va ulug' qadriyat deb erk vaadolat uchun kurashni ilgari suradi. «Yorqinoy» asari dunyoga kelgan kezlarda Turkistonda hali milliy istiqlol, erk va ozodlik uchun kurash davom etayotgan edi. Ana shu jarayonda sovet mustamlakachilari har kuni har qadamda yuzlab va minglab dahshatli fojealar va adolatsizliklarni amalga oshirayotgan edilar. Cho'lpon tomonidan xuddi shu paytda

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 410

«Yorqinoy» dramasining yozilishi bosqinchi yovlarga otilayotgan nafrat va la'nat o'qlarining yorqin ko'rinishi edi.

20-yillarda jadidchilik dramaturgiyasida o'ziga xos o'rni bo'lган ijodkorlardan biri H.H.Niyoziy edi. Uning «Qahramon o'g'iz», «Farg'ona fojealari», «Muxtoriyat» kabi asarlari sovet adabiyoti qolipidan tashqaridagi sahna asarlari edi. Shu boisdan ham Sovetlar hukmronligi davrida yaratilgan o'quv qo'llanmalarida bu asarlar tilga ham olinmadni. Bundan tashqari Hamzaning «Tuhmatchilar jazosi», «Kim to'g'ri?», «Maysaraning ishi», «Xolisxon», va boshqa asarlarni ham sovet dramaturgiyasining emas, balki jadidchilik dramaturgiyasining namunalari qatoridagi asarlaridir. Chunki undagi voqeа xodisalar talqinida sotsialistik realizm belgilari ko'rinxaydi, muallif hayotiy voqeа va hodisalarni xolisona va atroflicha tasvirlaydi, insonni insoniy jozibalardan mahrum etuvchi sinfiylik sifat va harakterlarga murojaat etmaydi.

20-yillarda jadid ijodkorlar proza janrida ham qalam tebratdilar. Natijada tarixda o'z o'rniga ega bo'lган bir qator hikoyalari va romanlar paydo bo'ldi. Bular Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon» ro'monlari, «Kalvak Mahdumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi» kabi hikoyalari, S.Ayniyuning «Buxoro jallodlari», «Odina», «Qulbobo yoki ozod», Mo'minjon Muhammadjon o'g'lining «Turmush urinishlari» kabi ro'mon va qissalari shular jumlasidandir. Bu asarlarda Turkistondagi mehnatkash ommanning ko'p qirrali hayot kechmishlari qalamga olingan, o'lkaning kechagi eng dahshatli qorong'u va mustamlakachilik davri o'tmishi la'natlanadi.

20-yillarda jadid ijodkorlar bilan bir qatorda Oybek, H.Olimjon, G`G`ulom, Uyg'un, Usmon Nosir, Elbek, Botu, Abdulla Qahhor, H.Shams, Oydin, Mirtemir, Komil Yashin, Sobir Abdulla kabi yosh qalam sohibalari adabiyot maydoniga kirib keldilar. Bu jadidchilik adabiyoti beiz yo'qolib ketmaganligini ko'rsatadi. Gap shundaki, 20-yillarning oxirlariga kelganda Sovet hukumati va Kompartiya mafkuraviy kurashni keskin suratda kuchaytirdi, yo'qsil adabiyotining gegemonligi uchun kurash bahonasida aslida ulug' davlatchilik, mustamlakachilik siyosati kuchaytirildi. 30-yillarga kelib jadidchilik adabiyotining rivojlanishi uchun hamma

imkoniyatlari mutlaqo yopib qo'yildi. Shu boisdan ham bu davrda Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» (1929) va Cho'lponning «Kecha va kunduz» (1935-1937) ro'monidan boshqa jadid adabiyotidan namuna tariqasida ko'rsatishga arziyidigan asar chop etilmadi.

Bu davrda o'ziga xos zamon zayliga mos yangi yo'nalishdagi asarlar paydo bo'ldi, shakl va mazmun sohasida bir qancha yangiliklar vujudga keldi. Ammo shu narsaga imon keltirish kerakki, vaziyat qanchalik og'ir bo'lsada badiy ijodda hamma janrlarda xalq obrazi etakchi o'rinda bo'ldi.

Sheriyatda biz buni Abdulhamid Cho'lpon, Oybek, Shayxzoda, Mirtemir va boshqalar singari zabardast va etuk shoirlar bilan bir qatorda Usmon Nosir, Sulton Jo'ra, Hasan Po'lat kabi yosh ijodkorlar asarlarida ko'ramiz. Lirikadagi bunday namuna xususan olov qalb shoir Usmon Nosir (1912-1944) ijodiga xosdir. Uning she'riyatining mavzui serqirradir: sevgi-muhabbat, hayot tashvishlari, ijtimoiy-siyosiy jumboqlar masalalari markazida inson timsoli markaziy o'rinda turadi. Bu bejiz emas. Chunki Usmon Nosir xalq, vatan manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadi. U 1933 yilda Samarqandda yozgan «Yurak» she'rida butun hayoti, borlig'ini xalqqa, jamiyatga bag'ishlash, ona-Vatanga mehr-muhabbat sadoqat ila halol xizmat qilish g'oyasini ilgari surgan edi.

30-yillarda she'riyat bilan bir qatorda ballada, doston, badiiy ocherk, hikoyat, drama yo'nalishlarida ham o'zbek adiblari bir qator xalqchil asarlar yaratdilar. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg'», Sulton Jo'raning «Qaldirg'och» poemalari, A.Qodiriyning «G'irovonli Mallaboy aka», H.Shamsning «Dovon oshganda», «Mehnat-baxt garovi», G'.G'ulomning «Semurg' qanotida», «Oydinning», «El og'zida ertak» kabi ocherklari, A.Qodiriyning «Obid ketmon», G'.G'ulomning «Shum bola», «S.Ayniyning» «Sudxo'rning o'limi»-va boshqa qissalari, Cho'lponning «Kecha va kunduz», S.Ayniyning «Doxunda», «Qullar», Oybekning «Qutlug' qon», A.Qahhorning «Sarob» ro'monlari, Ziyo Said va N.Safarovning «tarix tilga kirdi», U.Ismoilovning «Rustam» kabi bir qator drama asarlari shular jumlasidandir. O'zbek ijodkorlari mazkur asarlarda g'oyat og'ir, Sovetlarning Qatag'on siyosati

va amaliyoti o'z taraqqiyoti pillapoyasidan rivojlanib borayotgan bir davrda jamiyatdagi o'tkir muammolarni g'oyatda ustamonlik bilan ochib ularga o'z munosabatlarini bayon etadilar. Bu jihatdan Umarjon Ismoilovning «Rustam» sahna asari diqqatga loyiqdir. Unda muallif chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatini fosh etish, uning butun boshli yaramas va chirkin illatlarini ochish orqali o'zлari yashab turgan jamiyatni la'natlaydilar. Bu jihatdan asardagi bosh qahramon kosib yigit Rustam obrazi diqqatga loyiqdir. Isyonkor Rustam milliy ozodlik kurashiga otlangan 1916 yilgi Jizzax qo'zg'oloni jangchilarining to'la qonli vakilidir. U ijtimoiyadolatsizlik va sinfiy tengsizlikni la'natlaydi, hamma narsani, inson qadr-qimmati, insof-diyonat va iymonni ham boylik, pul hal qiladigan jamiyatda hatto xudo ham ojiz ekanligini badiiy bo'yoqlarda ochadi va amalda bunday jamiyatni ag'darib tashlashga xalqni da'vat etadi:

Ayni paytda 30-yillarda qizil sultanat mustamlakachiligi siyosatiga mamlakatda avj olib ketgan ma'mur buyruqbozlik, siyosiy qatag'onlik bilan bog'liq illatlar qo'shib jamiyat dahshatli bir tusga kirdi. Bu adabiyotda ham o'z aks sadosini topdi. Jamiyat hayotidagi kamchilik va nuqsonlardan ko'z yumish, «xalqlar dohiysi» sha'niga madhiyabozlik, «buyuk og'a» va Kompartiyaga hamdusanolar o'qish odatiy tusga kirdi. «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1937 yil 29 noyabr sonida yozilishicha 26 noyabrdan Toshkentda Sovet yozuvchilari uyida respublika yozuvchilarining umumiy yig'ilishi bo'lgan. Unda O'zbekiston Respublikasi prokurori Sheyndlin SSSR Oliy Sovetiga saylovlар munosabati bilan Sovet yozuvchilarining vazifalari to'g'risida ma'ruza qiladi..

Ma'ruzadan keyin muzokaralar boshlanadi. Shoир va yozuvchilar Oliy Sovet deputatligiga nomzodi ko'rsatilgan partiyasiz bolshovoylar sha'niga she'r va ocherklardan parchalar o'qib kim o'zarga o'ziga xos musobaqa uyushtirganlar. G`afur G`ulom Sovet Ittifoqi Qahramoni Papaninga, Maqsud Shayxzoda I.Stalinga, Hasan Po'lat K.Voroshilovga Zafar Diyor L.I.Kaganovichga, Amin Umariy Usmon Yusupovga bag'ishlab yozgan she'rlarini o'qib bergenlar. Yig'ilishda hammasi bo'lib nomzodi ko'rsatilgan deputatlar sha'niga 45 ta she'r va bitta ocherk o'qilgan.

Xullas, 30-yillarga kelib O'zbekistonda badiy adabiy ijod og'ziga qulf urildi va o'zi zanjirband etildi. U endi batamom mustamlakachi va zo'rovon tuzumning ayanchli qo'g'irchoq malayiga aylantirildi.

Sovet hukumati va Kompartiya to'rtinchi hokimiyat sifatida ommaviy axborot vositalari yordamida faqat Kompartiya mafkurasi keng jamoatchilik ongiga singdirildi va milliy mustamlaka o'lklarida buyuk davlatchilik tartib-qoidalari himoya qilindi. Oktyabr harbiy to'ntarishidan keyingi dastlabki kunlardan boshlab (1919 yildan e'tiboran) Kompartiyaga mulohifatdagi barcha siyosiy partiyalar va ularning organlari taqiqlab qo'yildi. 1917 yoldayoq matbuot senzurasi yo'lga qo'yilgan edi. 1922 yil 8 iyunda Sovet Xalq Komissarlari senzuraning barcha turlarini birlashtirish maqsadida matbuot ishlari bo'yicha Bosh qo'mita tuzishga qaror qildi.¹ Tez orada senzura bosh qo'mitasi (Glavlit) tashkil etildi va uning zimmasiga matbuotda e'lon qilinadigan barcha turdag'i axborotlarni qattiq nazorat ostiga olish vazifasi topshirildi. Shundan so'ng hamma erda taqiqlangan kitoblar ro'yxati paydo bo'lди. Sovet mustamlakachiligi va Kompartiyaning mafkuraviy g'oyalarini targ'ibot va tashviqot qiluvchi axborot vositalariga keng yo'l ochildi, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. 1924 yilda O'zbekistonda Sovetlar umuman kitob nashr etmagan bo'lsa, 1940 yilda 1219 kitob chop etildi, shundan 660 tasi o'zbek tilida. Ayniqsa Marks-Engels-Lenin-Stalin asarlari ko'plab chop etildi. Jurnallar 1924 yilda 22 ta bo'lgan bo'lsa, 1940 yilda 52 taga etdi, shundan 19 tasi o'zbek tilida edi. Gazetalar 1924 yilda 26 ta edi, 1940 yilda u 200 tani tashkil etdi, uning 124 tasi o'zbek tilidagi gazetalar edi. Bundan tashqari rus tilida Rossiyadan keladigan kitoblar, jurnallar, gazetalar, har xil to'plamlar, byulletenlar va boshqalar bu hisobga kirmaydi.

Sovet hukumati va Kompartiya bu sanalgan ommaviy targ'ibot vositalaridan tashqari radio, har xil madaniy oqartuv muassasalari, «bilim» jamiyatlari orqali ham mehnatkash omma ongini zaharlar edi. Bolshovoylar hatto an'anaviy milliy harakterdagi choyxonalargacha «qizillashtirgan» edilar.

¹ Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 268.

San'at. Mamlakatimiz xalqlari qadimdan san'atga o'ch ekanligi sir emas. Ammo Sovet hukumati va Kompartiya bu borada ham o'zining hukumronlik mavqeidan foydalandi.

San'atni Kompartiyaning mafkuraviy quroliga aylantirdi. Bu borada O'zbekistonlik san'at xodimlarining Markaziy shaharlarda Sovetlar g'oyasi ruhida o'qitib «maxsus» tayyorgarlikdan o'tkazilishi diqqatga loyiqdir. 1924 yil Moskvada O'zbekiston maorif instituti huzurida drama studiyasi tashkil qilingan edi. Evgeniy Vaxtangov rahbarligidagi bu studiyada rus teatri «ustalari» mashg'ulotlar olib borganlar. O'sha yili O'zbekistonlik san'atkorlardan Mannon Uyg'ur, Etim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'raeva, Sa'dullaxon Tabibullaev, Lutfullo Narzullaev, Zamira Hidoyatova va boshqalar bu studiyaga o'qishga yuborildilar va 1927 yilda ular Toshkentga qaytib keldilar. O'zbek san'atkorlari keyinchalik ham Rossiyaning Markaziy shaharlariga «o'qish uchun» muntazam yuborilib turdilar. 1924 yilda O'zbekistonda 2 ta teatr bor edi. 1940 yilda ularning soni 45 taga etdi. Bu teatrlar sahnalarida yuqorida berilgan buyurtma sahma asarlari bilan bir qatorda milliy ruh va mavzularda, jadidchilik g'oyalarida yozilgan dramalar ham sahnalashtirilgan edi. 20-30 yillarda zo'r muvaffaqiyat bilan xalq orasida e'tibor qozongan sahma asarlari qatoriga Hamzaning «Maysaraning ishi», Fitratning «Qiyomat kuni», «Abulfayzxon», A.Cho'lponning «Cho'riqiz isyoni», «Yorqinoy», «Zulimkor», asarlari, «Layli va Majnum», «Farxod va Shirin», «Tohir va Zuhra» kabi musiqaviy dramalarni kiritish mumkin.

O'zbekiston qo'shiqchilik va musiqa san'atida ham o'zining tarixiy an'anasiga ega. Oktyabr harbiy to'ntarishidan keyingi davrda ham o'zbek qo'shiqchiligi va musiqa san'atida nomdor shaxslar bo'lganligi sir emas. Xalqimiz Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon va Xorazm san'ati dovrug'ini jahonga tanitgan Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Abduqodir Ismoilov, Matyusuf Xarratov, Sheroziy, Hojixon Boltaev, Ahmadjon Umirzoqov va ularning shogirdlari: Qori Siroj Yusupov, Hoji Rahimberdi,

Xushkomil, Usto Muqus, Eshon Rahmatxoja, Muhiddin Mavlonov, Bobo Sharif, Qodir Avliyo, G`ulom Qodir va boshqalar ijodi bilan haqli suratda faxrlanadi.

O'zbek milliy musiqasi taraqqiyotida G`Zafariyning¹ xizmati katta bo'ldi. Uning «sharq kuylari va cholg'ulari», «Muzika muammosi», «o'zbek muzikasi to'g'risida» kabi maqolalari, milliy madaniyat rivojiga munosib ulush bo'lib qo'shildi. G`Zafariy XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr birinchi yarmida Turkistonda yashab ijod etgan mashhur xonanda va sozandalardan 168 tasining faoliyatlarini o'rganib tahlil qiladi. Ular orasida mashhur Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Xudoybergan Ustoz, Ashurali Mahram, Mamajon Hofiz, Yoqubjon chang, Ortiq Hofiz, Orif Barmon, Madumar hofiz, Ummatqul qo'shnay, Ahmadjon qo'shnay, Teshaboy soz, Shojalil hofizlarning nomlari bor edi.

San'atkorlardan Domla Halim Ibodov, Ota Jaloliddin Nazirov, Matyusuf Xarratovlarning fidoyiligi bilan 1929 yilda Samarqandda O'zbekiston xalqlari qo'shiqchilik san'atini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan. Ayni paytda O'zbekistonda san'at bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan rus shovinistlari «do'stlik», «baynalmilalchilik» kabi shiorlarga o'ralib 30-yillarning boshlaridan e'tiboran an'anaviy milliy qo'shiqchilik va musiqa san'atimizga tajovuz uyuştira boshladilar, uni evropalashtirishga harakat qildilar. Shu maqsadda ular o'zbek milliy musiqiy asboblarini evropacha usulga moslashtirish shiorini ko'tarib chiqdilar.

O'zbek milliy madaniyatidan uzoq va unga begona bo'lgan xor kapellasi, opera san'atini xalq orasiga olib kirish kabi harakatlar ham omma o'rtaida moddiy va ma'naviy kuchga ega bo'lmadi. Bu san'at turlari hozirga qadar ham o'zbek xalqining ma'naviy dunyosida o'ziga yo'l topaolganicha yo'q.

Havaskor va yarim professional guruhlar faoliyati zaminida M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan 1926 yilda o'zbek Davlat Kontsertetnografiy guruhm tashkil bo'ldi. Bu guruh tarkibida Abduqodir Ismoilov, Muhiddin Xo'ja, Ahmadjon Umirzoqov, Usta Olim Komilov, Jo'raxon Sultonov, Mamatbuva, Tamaraxonim,

¹ F.Zafariy 1899 йилда туғилган. У 1914 йилдаёқ «Турон» труппасида актёр бўлган, ўқитувчилик қилган. «Ишчилар дунёси» журналида мухаррир бўлиб ишлаган, сан'атшунослик институтида илмий ходимлик қилган, 1937 йилда қатағон курбони бўлган.

Otaxo'ja Saidxo'jaevlar qo'shiqchilik san'atini omma o'rtasida keng targ'ib etdilar. Mazkur guruh 1928 yilda «o'zbek Davlat kontsert ansamblı» nomini oldi. 1929 yilga kelganda esa u o'zbek Davlat musiqa-eksperimental ansambili deb nomlandi¹. Ana shu ansambl bazasida 1939 yilda o'zbek Davlat filarmoniyasi tashkil etildi.

O'zbekiston san'ati ustalari respublika, Ittifoqi miqyosida ko'rikarda o'zbek milliy san'ati yutuqlarini namoyish etdilar. Jumladan, 1932 yilda Moskvada o'tkazilgan badiiy havaskorlarning Birinchi Butunittifoq olimpiadasida respublikadan 30 kishi qatnashdi. 1938 yilda xalq havaskorlari jamoalarining respublika olimpiadasi bo'ldi. Unda 18 shahar va 700 jamo xo'jaligi ishtirok etdi².

1937 yilda O'zbekiston san'ati ustalari o'z muvaffaqiyatlarini Moskvada o'tkazilgan dekadada namoyish qildilar. Unda mashhur san'atkorlar Xalima Nosirova, M.Qoriyoqubov, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Tamaraxonim, Abdulla Baxshi Nurillaev, Usta Olim Komilov, Sora Eshonto'raeva, Abror Hidoyatov, S.Tabibullaev va boshqalarning chiqishlari har qancha ta'qib va taz'yiqlarga qaramasdan o'zbek milliy san'ati o'z tarixiy an'analarini davom ettirayotganligini ko'rsatdi.

20-30 yillarda kino san'ati sohasida deyarlik hech narsa qilinmadni, desa bo'ladi. Bunga mutaxassis kadrlarning «yo'q»ligi asos qilib ko'rsatildi. Asosiy e'tibor omma o'rtasida Markazdan yaratilgan «ishonchli» filmlarni namoyish etishga qaratildi. Shu bois kino filmlarni namoyish etadigan nuqtalarni ko'paytirishga asosiy e'tibor berildi. Bunday nuqtalar 1924 yilda 18 ta bo'lgan bo'lsa, 1940 yilda u 624 taga etdi¹.

30-yillarning o'rtalariga kelib dastlabki ovozli filmlar paydo bo'ldi. 1936 yilda chiqarilgan birinchi ovozli film «Qasam»dir. 1938 yilda yangi ovozli film «Azamat» suratga olindi. Ammo bu filmlarni yaratuvchilarning barchasi evropa

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 412

² Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 414.

¹ Ўша асар, ўша жойда.

millatiga mansub shaxslar edi. Sovetlar kino san'ati sohasida milliy kadrlarni tarbiyalab etishtirishga unchalik shoshilmadi. Kinoda rollarni ijro etaoladigan artistlar ham barmoq bilan sanarli darajada bo'lib, bular: Bakirov, Haydarov, G'aniev va boshqalardan iborat edi. Bu ulug' davlatchilik, mustamlakachilik siyosatining kino san'atida yorqin o'z ifodasini topayotganligini ko'rsatar edi.

30-yillarda shovinistik siyosatining yorqin namunasi 1939 yilda yaratilgan «Farg'ona kanali» filmida o'z aksini topdi. O'zbek xalqining mehnat jasorati va matonatini aks etirgan «buyuk» qurilishlardan biri Katta Farg'ona kanali qurilishi edi. O'zbekistonning U.Yusupov boshchiligidagi o'sha davrdagi rahbariyati xalqning bu jasoratini tarixda qoldirmoqchi bo'ladilar. Ana shu maqsad taqozosi bilan U.Yusupovning taklifiga ko'ra mashhur kinorejessyor Sergey Mixaylovich Eyzenshteyn O'zbekistonga kelgan. U Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo'qonda bo'lib o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va urf-odatlari bilan tanishadi. Shundan so'ng Eyzenshteyn P.Pavlenko bilan hamkorlikda «Farg'ona kanali» stsenariyasini yozdi. Film stsenariysi hatto SSSR Kinematografiya davlat qo'mitasi tomonidan qabul ham qilingan. Eyzenshteyn o'zbek san'atkorlarining imkoniyatlarini to'g'ri baholay oldi. Va kinorejissyorlar shu paytga qadar biror marta studiyaga taklif etmagan, kinoda birorta ham rol o'ynamagan Muhiddin Qoriyoqubov, Boborahim Mirzaev, Lutfulla Nazrullaev kabi qobiliyat sohiblarini ekranga oldi. U Hikmat Latipov, Mirshohid Miroqilov, Nurxon Eshmuhamedov, Abbas Bakirov, Shukur Burxonov kabi o'zbek teatr arboblari bilan ishlash niyatida ro'yxat tuzdi. Ammo suratga olingan stsenariy filmga aylanmadni. Suratga olingan kadrlar yo'q qilib tashlangan.

«Farg'ona kanali» filmi nega ekranga chiqmadi, nima sababdan u taqiqlab qo'yildi? degan savol shu paytga qadar muammoligicha qolmoqda. bu to'g'rida ba'zi bir taxminiy fikrlar bor. Jumladan, filologiya fanlari doktori Hamidulla Akbarovning bu haqdagi xulosasi quydagicha: «Bizningcha 30-yillarning ikkinchi yarimlarida, qatog'on qilish avjiga chiqqan damlarda Amir Temurning jangujadallarini tasvirlash «Xalqlar dohiysi» va uning homiylariga ma'qul bo'limgan. Bundan ko'rindaniki, o'sha «g'oyaviy» rahbarlar hayot haqiqatini ham, ijodkor

salohiyatini ham, xalqlar hayotidagi ulkan yangiliklarini ham, o'zlarining kayfiyatlaridan keyingi o'ringa qo'yishgan, barcha hayotiy muammolarni kirdikorlari doirasida mushohada etishgan»¹.

Xullas, «Farg'ona kanali» kinofilm Sovetlar mustamlakachilari ko'ngliga manzur bo'ladigan film bo'lmasdi, shu bois u dunyo yuzini ko'rmasdanoq qatag'onga uchradi.

O'zbekistonda 20-30 yillarda tasviriy san'at sohasida ham qator yosh mahalliy ijodkorlar etishib chiqdi. 1929 yilga kelib O'zbekiston rassomlar soyuzi tashkil etildi. Bu davrda O'.Tansiqboev, Ch.Ahmarov, A.Abdullaev, M.Nabiev, L.Abdullaev, Sh.Hasanova, R.Temurov, X.Rahmonov, B.Hamdamiy, L.Nasriddinov va boshqalar katta ijodiy barkamollikka erishdilar.

Xususan akademik, rassom O'rol Tansiqboevning ijodiy parvozi haqida gapirmaslikning iloji yo'q. Uning ijodiy laboratoriyasidan barkamollik sari otilib chiqqan Rassom Akrom Toshkanboev portreti (1927), «Sirdaryo» (1935), «Burchmulla» (1936), «Bog'iston» (1937), «Tog' manzarasi» (1937), «Bahorgi ishlar» (1938), «Orol dengizi» (1939) va boshqalar chinakam xalq mulkiga aylandi.

Shunday qilib, yuqoridagi lavhalar shundan dalolat beradiki, Sovetlar mustamlakachiligi sharoitidagi og'ir vaziyat, ta'qib va taz'iq hamda kansitishlarga qaramasdan o'zbek milliy madaniyati rivoj topdi, xalqimizning ma'naviy dunyosi boyidi va yangi dovonlar oshdi.

I.2. Sovetlar hukumatining islom diniga munosabati

Sovetlar hukumati va Kompartiya Turkistonda Oktyabr harbiy to'ntarishini amalga oshirgan birinchi kundan boshlab xalqimizning milliy-diniy qadriyatlarini g'orat qilish yo'lini tutdi. Bu mohiyatan tushunarli holdir. Chunki, qizil mustamlakachilar xalqimizni milliy va diniy ma'naviyatini o'zgartirmasdan turib bu o'lkada uzoq muddatda hukmronlik qila olmasliklarini yaxshi bilar edilar. Ammo bu ishni bolshovoylar birdaniga emas, ayyorlarcha, asta-sekin va

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 414

bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar. Rossiya Sovet respublikasi XK Soveti 1917 yil 20 noyabrda e'lon qilgan va V.I.Lenin imzolagan «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatida: «Sizning din va urfatodatlaringiz... bundan buyon erkin va dahilsiz...»¹ deb e'lon qilindi.

1918 yil 23 noyabrda esa V.I.Lenin imzosi bilan Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqida dekret e'lon qilindi. Bu dekret RSFSR va SSSR Konstitutsiyalari asosida tuzilgan O'zbekiston SSRning 1927 va 1937 yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalari uchun asos qilib olindi va vijdon erkinligi g'oyasi ilgari surildi. Amalda esa mutlaqo boshqa qonunlar hukmronlik qildi. Lenindan keyingi ikkinchi kishi hisoblangan Trotsskiy bolsheviklarning dinga qarshi kurash tadbirlarini buzish borasida ko'pgina bema'niliklar, tuturiqsizliklar qilgan. Dasturga ko'ra dinga qarshi kurash maorif, ma'rifat, targ'ibot tushuntirish yo'li bilan olib borilishi va partiyaviy ishning boshqa mafkuraviy shakllari orqali olib borilishi kerak edi. Trotskiy esa bu ishga o'ta «revolyutsionlik» tusini bergen. Uning Lenin va Kalinin imzolari ostida VChK raisi F.E.Dzerjinskiyga 1919 yil 1 mayda yo'llagan ko'rsatmasida Butun Rossiya Ijroiya Komiteti va Xalq komissarlari kengashi qaroriga muvofiq imkon boricha ko'proq poplar va din yo'q qilinsin, poplar kontrrevolyutsionerlar va sabotajchilar sifatida qamoqqa olinsin va shavqatsizlik bilan hamma joyda otib tashlansin, imkon boricha ko'proq, cherkovlar yopib qo'yilsin, ibodatxonalar muhrlab qo'yilsin va omborxonalarga aylantirilsin deyilgan². Cherkovlarga va ruxoniylarga qarshi teror o'tkazishda Lenindan ham Stalindan ham ko'proq aybdor Trotskiyning o'zi edi. Joylarda esa bu sohada trotskiychilar peshqadamlik qilganlar. Ular O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda ham ana shunday bema'ni, noqonuniy ishlarni qilganlar.

1929 yil boshida L.M.Kaganovich imzosi bilan joylarga diniy tashkilotlar birdan-bir legal harakat qilayotgan va ommaga ta'sir ko'rsatuvchi aksilinqilobiy kuchdir, degan direktiva yuborildi. Joylardagi bolshevistik tashkilotlar uchun

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 417.

² Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 271.

ushbu hujjat din va dindorlarga munosabati uchun birdan bir asos bo'ldi. Sovet hukumati va Kompartiya «din-xalq uchun afyundir» degan g'oyaga amal qildi. Dindorlar ta'qib va taz'iyiq ostiga olindi. Diniy kitoblar «reaktsion» deb e'lon qilindi. Diniy kitoblarni yo'qotish bahonasida arab imlosiga asoslangan eski o'zbek imlosidagi barcha kitoblar yo'q qilindi. Machitlar va madrasalar buzib tashlandi. Hatto peshtoqi, devori, eshik yoki ustunlarida arab imlosida yozuvi bo'lган binolarga ham qiron keltirildi. Saqlanib qolgan ba'zi machit va madrasalar ham boshqa maqsadlarda foydalanildi: mineral o'g'itlar saqlanadigan omborxonalar, kerosin sotadigan do'kon, temirchixona kabilarga aylantirildi. «Hatto, Alloh taoloning uyi hisoblanmish masjid xudosizlar uyiga aylantirilgan. Ya'ni unda ateizm muzeyi ochilgan edi»¹.

20-yillarning oxirlarida Qarshi shahrida madrasalarni qamoqxonalarga aylantirgan ekanlar. «Xoja Abdulaziz madrasasida avaxtada yotganlarida xibsga olingan bechoralarni yo'q joydagisi azoblar bilan qiynar ekanlar, Qish vaqtida, deng, madrasa xovuzining muzini yorib, bandilarni suvga solib qiynar ekanlar...»².

Sovet tarixida masjid va madrasalarga ommaviy suratda qiron keltirish ikki marta bo'lган. Biri 1934-1939 yillarda va ikkinchisi 1954-1955 yillarda. 1929-1939 yillar orasida faqat birgina Turkiston hududining o'zida 14,000 masjid yoptirilib buzdirilgan. Shayxlar, imomlar va boshqa diniy arboblar jazolangan: qamoqqa olingan, surgun qilingan va o'ldirilgan³.

Jumladan Qoraqolpog'iston respublikasi, Beruniy tumani hududidagi payg'ambar Muhammad Sallollohu alayhi vassallamning do'sti Sulton Vays boboga atab IX asarda qurilgan maqbara va masjidning tillodan yasalgan jihozlari, har xil buyumlari 30-yillarda talon-taroj qilindi. Madrasa esa buzib tashlandi.

1935 yilga oid ma'lumotlarga qaraganda Buxoro shahridagi Devonbegi madrasasida Buxoro yodgorliklarini saqlash komissiyasining ish yuritish xonasi, ekskursiya bazasi joylashtirilgan. Ko'kaldosh madrasasi va Devonbegi xonaqosida

¹ Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 269.

² Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — Т.: «Sharq», 2010. - В. 410

³ Ўша асар, ўша жойда

Buxoro shahar muzeyi bo'limi joylashdi. Masjidi Kalondan g'alla ombori sifatida foydalanganlar, Qo'shmadrasada paxta saqlangan.

Xuddi o'sha 1935 yilgi ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, Mir Arab madrasasi, Bahovuddin Naqshband mozori va masjidi va boshqalar diniy markazlar sifatida qoralab kelingan. 1938 yilda Beshkentda antiqa «tarixiy voqe» ro'y berdi. Shu kuni tuman firqa va ijroiya qo'mitalarining qo'shma hay'ati majlisi bo'ladi. Unda Mamanazarov, Jmak, Otaboev, Jovliev, Aslanova, Doroshenko, Shaxobiddinovlar qatnashgan. Qo'shma hay'at «Kasbi» qishloq sovetsidagi qo'hna masjid haqidagi masalani ko'rib chiqadi. Qabul qilingan qarorda: «...qishloqdan maydonda foydalanmay xarob bo'lib ketgan machit Stalin nomli jamoa xo'jaligi a'zolarining roziligi bilan machitning kerakli g'ishtlari olinib, boshqa kerakli joyga xarjlansin va shuning tasdig'i javobi O'zSSR Markaziy Ijroqo'mining hay'atidan so'ralsin»¹, deyilgan edi. Ana shu tariqa qadimiy tarixiy obidalar, machit va madrasalarni buzish, g'ishtlarini «kerakli» joylarga ishlatish, jamoa xo'jaliklarining «roziligi» bilan butun O'zbekiston hududidagi na faqat 20-30 yillarda balki undan keyingi yillarda ham an'anaviy tus olgan edi.

Islom diniga qarshi kurash bahonasida xalqimizning qadimiy urf-odatlari, madaniyati, qadriyatlariga hujum boshlandi. «Ro'za hayiti», «Qurban hayiti», «Navro'z» kabi xalq bayramlari taqiqlandi, hatto Islomgacha ham xalqning eng sevimli taomi bo'lib kelgan «Sumalak»ni payg'ambar taomi sifatida taqiqlab qo'ydilar. Uning o'mniga yangi sovet bayramlari va tantanalari joriy qilindi. Bular: «Oktyabr tantanasi», «SSSR Konstitutsiyasi kuni», «Qizil Armiya kuni», «V.I.Leninning tug'ilgan kunini nishonlash», SSSR va O'zbekiston SSRning tashkil etilganligini nishonlash va hokazolar shular jumlasidandir. Milliy kiyimlarda yurish, sunnat to'yini qilish, o'z ona tilida muloqotda bo'lish eskilik sarqiti va madaniyatsizlik ko'rinishi deb baholanadigan bo'ldi. Bolalar bog'chalaridan tortib to oliy o'quv yurtlariga qadar bosqichlarda yoshlarni

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 417.

xudosizlik (ateizm) ruhida tarbiyalash dasturlari, darslik va qo'llanmalari ishlab chiqildi.

Muqaddas Qur'oni Karim kitobini o'qish u yoqda tursin, unga hatto ko'z tashlashning o'zi kechirilmas katta gunoh hisoblangan. Qur'on kitobi nasroniylar uchun rus tiliga tarjima qilindi, ammo o'zbek tiliga musulmonlar uchun tarjima qilinmadni. Faqat O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach 1992 yilda u o'zbek tiliga o'girildi.

Xotin qizlarni «ozodlikka chiqarish» bahonasida 1927 yilda respublikada «Hujum» harakati boshlandi. Xotin-qizlar faolligini oshirish bobida ma'lum ma'noda bu harakat ijobiy baholansada, uni tashkil etishdan ko'zlangan bosh maqsad reaktsion edi. Avvalo bu harakat mahalliy xalqlarning asrlar osha tarixan shakllangan milliy an'ana va qadriyatlarini hisobga olmagan holda o'tkazildi, xotin-qizlarning ayollik sha'n-qadr-qimmatlari oyoq osti qilindi. Ko'p hollarda paronji chachvonni tashlash zo'rlik bilan amalga oshirildi. Ikkinchidan «xotin-qizlar ozodligi» uchun kurash bahonasida islom diniga qarshi kurash avj oldirildi. Chunki «xotin-qizlar ozodligi»ning asosiy dushmanlari qilib islom ruhoniylari ko'rsatildi.

Sovet hukumati va Kompartiya «Hujum» kompaniyasini o'tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: **Birinchidan**, o'zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy axloqiy sharqona an'ana va qadriyatlarini g'orat qilish va ma'naviyatimizga zarba berish: **Ikkinchidan**, «xotin-qizlarni ozod qilish», bahonasida sanoat korxonalari, kolxozi va sovxozlarda arzon garovda ishlaydigan qo'shimcha ishchi kuchlari sifatida ulardan foydalanish, amalda ularni sovet qullariga aylantirish edi.

Ulug' adib Chingiz Aytmatov «Hujum» kompaniyasi haqida so'zlab bunday degan edi: «Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan «Hujum» kampaniyasi o'sha davrning og'ir hatolaridan biri edi deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi. Ustiga-ustak, ilohiy olamning qurilmasiga qarshi yo'naltirilgan jinoyat edi. Xudoning barqarorligini inkor etgan murtadlar Xudoning

vazifasini o'z zimmalariga oladilar va «yangi odam yaratamiz» deb, dahshatli o'yin boshlaydilar».¹

II BOB. SOVET HUKUMATINING O`ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN TA`LIM SOHASIDAGI DASTLABKI ISLOXOTLARI VA UNING NATIJALARI

II.1. “Sovet maktablari”ning tashkil topish jarayoni

1917-yil Fevral’ inqilobidan keyin Turkiston taraqqiyparvarlari milliy davlatchilik uchun xarakat boshladilar. 1917-yilning o’zida to’rt marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi o’tkazildi. U 1917-yil 1 – 11-mayda bo`lib o’tgan I Buturrossiya musulmonlari s`ezdidan so`ng Turkiston musulmon aholisi orasida muhtoriyat masalasi faol ko`tarila boshlandi¹.

1917-yil yozida Butun Rossiya Ta`sis Majlisiga saylovlari arafasida turkistonlik taraqqiyparvarlar o`zlarining siyosiy partiyalarini tuzish zarurligini

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. (O’zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. — T.: «Sharq», 2010. - B. 418.

¹ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 68.

anglab yetdilar. Turkistonlik islobatchilarning xarakati natijasida Turkiston musulmonlari siyosiy partiyasining dasturi tuzildi, u Skobelev (hozirgi Farg'ona shahri)da 1917-yil 12-14 iyulda bo`lib o`tgan musulmon tashkilotlari qurultoyida tasdiqlandi².

Partiya dasturi turli sohalar kabi ta`lim sohasini ham qamrab olgan edi. Chunki, mustahkam milliy davlat qurish uchun yuqori bilimga ega insonlar kerak edi. Buning uchun esa ta`limga jiddiy e`tibor berish kerak edi. Partiya dasturida ta`lim masalalari batafsil bayon etiladi. Ta`lim olish huquqi “jinsi, millati va dinidan qat`iy nazar” barchaga berilishi kuzda tutiladi. Bunda maorif tizimini tashkil etish ishida xususiy tashabbusga ham, mahalliy hokimiyatlar tashabbusiga ham cheklashlar qo`yilmasligi lozim. Maktab erkinligi e`lon qilinib, uning turli bosqichlari o`rtasida esa ana shunday vorisiylik bo`lishi kerakki, “u quyidagi oliy (maktab) ga yengil o`tishni ta`minlasin”. Oliy maktab birinchi navbatda universitetlar uchun muxtor, boshlang`ich ta`lim esa umumiylar va be`pul bo`lishi lozim deb hisoblanadi. Bu bosqichdagi maktablarda dars o`tish mazkur joyning ko`pchilik aholisi tilida olib borilishi lozim”. Oliy o`quv yurtlari va o`rta maktablarda rus hamda umumiylar turkiy tillar “majburiy dars” bo`lishi zarur. Biroq oliy maktabda “darslar turkiylar uchun umumiylar bo`lgan adabiy tilda o`tkazilishi lozim”¹.

Partiya xujjalarni tayyorlashda taniqli musulmon qonunshunoslari, madrasa muallimlari, savdogarlar, kotiblar ham ishtirok etgan edi.

1917 yil 7 – 11-sentyabr’ kuni Toshkentda O`lka musulmonlar Sho`rosining II o`lka musulmonlar s`ezdi bo`lib o`tdi. “Sho`roi Islomiya” tashabbusi bilan chaqirilgan ushbu qurultoyda Turkiston muxtoriyati markaziyat firqasining bayonnomasi qabul qilindi, bayonnomaning bosh qismi “Ixtor maxsus” deb nomlangan edi. Bunda Turkistonda muxtoriyat va federatsiya idorasini vujudga keltirmoq uchun birdan-bir chora Turkistonda quvvatli bir adami markaziyat firqasi yaratilishi lozim deb topildi. “Turkiston uchun, milliy va mahalliy

² Ўша асар, – Б. 103.

¹ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 105.

muxtoriyat istag'on har bir musulmonning shu firqaga a`zo bo`lib kirishishi lozimdir" – deb uqtirildi. Bu bayonnomma 19 bo`limdan iborat bo`lib "Maorif ishlari" deb nomlangan:

1. "Maorif ishlari adami markaziyati" usuliga muvofiq qonun uzra ta`sis va tashkil qilinur.

Ilm va maorif ishlarida jumla aholi, din va millatga ayirilmasdan, erkak va xotunlar barobardur.

Makotib (maktab) ishlarida xususiy shaxslarning g'ayrati va mahalliy idoralarning tashabbusi ila ishlanmish ishlarida xech vaj` (sabab) ila tahdid qilinmas.

Tadrisot (darslar)ning ozod va sarbast (erkin va borliq) ulmoqligi lozimdir.

2. Makotib orasida tartibot bo`lib, ibtidoiylardan (boshlang'ich maktab) rashidiylarga (to`liqsiz o`rta maktab), rashidiylardan a`dodiylarga (o`rta maktab) va a`dodiylardan oliylarga oliy maktab qulayligi ila talabalar qabul qilinadurg'on usulda bo`lur.

Dorilfunun va boshqa oliy maktablar jumlesi dohiliy ichki ishlarda ixtiyoriy va tadrisotda ozod bo`lurlar.

Oliy maktablarning avom orasida ilm va madaniyat xususindagi harakat va tashabbuslarga mumon`eat (monelik) qilinmayur.

Mahalliy idoralarning ta`lim va tarbiya xususindagi g'ayrat va harakatlariga mumone`at (monelik) ko`rsatilmaydur.

Ta`lim ibtidosi umumiyl, bepul va majburiy bo`lmog'i kerakdur.

Mahalliy idoralar tarafidan katta va buyuklar uchun ochiladurg'on maktab, kutubxona va qiroatxona ishlariga kengchilik berilur.

Hunar va sanoe` (san`atlar) taravdiysiga g'ayrat va tashabbus etilmog'i kerakdur.

Ibtidoiy va a`dodiy maktablarda tadris tili (dars) har bir muxtoriyatli hudud (muxtor viloyat)ning aksariyat aholisining so`zlaydurg'on tili va shevasida bo`lur.

Rashidiy va a`dodiy maktablarda rus tili va umumiyl turk shevasi lison qilunub, dars berilmog'i majburiy bo`lur.

Oliy maktablarda jumla turklarning umumiy adabiy tili va shevasi bilan dars berilur. Qirq bola yig'ilsa, avalliyatda (ozchilikda) qoladurron millatlar uchun ochilmish ibtidoiy usul maktablarda dars o`z tillarida uqulmog'i majburiydir. Yetarlik darajada talaba bo`lur esa, mahalliyat tashkil qilg'on, millat bolalari uchun tadrisot darslar o`z tillarida bulmoq sharti ila rashidiy va a`dodiy maktablari ochilur.

Maromnomada bayon qilingan jumla maqsadlarga etish uchun firqa avvalam janobi va soniyan (ikkinchidan) tabor mehnatkash va millatparvar vatandoshlarga so`yalub va takya qilur.

5-zulqa`da sana 1335-hijriy sana 11-sunbula (11-sentyabr) 1917-millodiy”¹.

Maromnomadagi maorif ishlarini jonlashtirish maqsadida Turkiston viloyatlarida qator maktablar ochila boshlandi.

Turkiston ma`rifatparvar va taraqqiyparvarlari 1917-yil oktyabr' oyida ro`y bergan davlat to`ntarishidan keyin milliy davlatchilik tuzish g'oyalarini yanada tezlashtirdilar. 1917-yil 26 – 28-noyabrdan Qo`qon shahrida Turkiston o`lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo`lib o`tdi. Unda milliy davlatchilik masalasi asosiy vazifa sifatida ko`tarildi. 1917-yil 28-noyabr (yangi hisob bilan 11-dekabr) da tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston Muxtoriyati, deb ataladigan bo`ldi. Bu davlat 72 kun yashadi va 1918-yil fevral' oyida tor-mor qilindi.

O`lkada sovet hokimyati o`rnatilgach, turli sohalar kabi, ta`lim sohasida ham isloxoxtolar o`tkazila boshlandi. 1918-yilda Farg'onada xalq maorifi xususida s`ezd chaqirildi. Uning qatnashchilari xalq maorifidan, o`qituvchilar ittifoqi, ota-onalar qo`mitalari va xalq maorifi nazoratchilaridan iborat edi. S`ezd kun tartibiga xalq maorifi tizimiga oid qo`yidagi masalalar qo`yildi:

– Viloyat maktablarini birlashgan xalq maktabi ruhida qaytadan tashkil qilish;

¹ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 101-112

- Tuzem maktabi;
- Maktabdan tashqari ma`lumot;
- Maxsus texnik ma`lumot;
- O`qituvchilar uchun kurslar.
- Viloyat xalq maorifi Kengashini tashkil qilish va boshqalar.

S`ezd eski maktab masalasini chetlab o`tdi, chunki uning asosiy maqsadi xalq manfaatini ko`zlaydigan yangi milliy maktabni qayta qurish masalasini hal qilishdan iborat edi. Farg`ona viloyatida bu masala to`liq hal qilindi. Ana shunday s`ezd 1918-yilda Andijonda ham o`tkazildi. Natijada, Andijon viloyatida yangi xalq ta`limi tizimi tashkil topdi va rivojlaia boshladи. Masalan, o`sha yiliyoq, Andijonda 2 ta bolalar bog`chasi, 2 ta bolalar uyi, 13 ta milliy maktab, 7 ta rus maktabi, 2 ta politexnikum tashkil qilindi va ishga tushirildi¹.

1918-yilda Farg`onada birinchi maktab ochilgan va unda Qori-Niyoziy va Hamza Hakimzoda o`qituvchilik qilgan edilar. O`sha maktab kengayib o`quvchilarning soni 40 nafarga yetgandi.

1918-yilda To`ytepada boshlang`ich maktab tashkil etildi. Unda Oqilxoji Sharafiddinov va Imomxon Husanxo`jayev faoliyat ko`rsatganlar. Toshkentda tajriba-namuna maktablari vujudga keldi. Masalan, Karl Libknext nomidagi tajriba-namuna maktabi Turkistonda maktablarning rivojlanishida turtki bo`ldi. Unga dastlab V.F. Lubensov rahbarlik qilgan. Maktabda kambagal va yetim bolalar o`qitildi.

Maktabdagи mehnat turlari, qurilish, qishloq xo`jaligi, o`ziga-o`zi xizmat, maktab ustaxonasida ishslash, aholi uchun kerakli ijtimoiy foydali ishlar va boshqalardan iborat edi.

Mehnat bolalarning yosh xususiyati va kuchiga moslab tashkil qilingan. Ta`lim-tarbiya jarayonida o`qishni mehnat bilan qo`shib olib borishga alohida e`tibor berilgan. Fanlardan olinadigan bilimlarni amalda qo`llab o`rganilgan. O`qitishning asosiy metodi nazariyani amaliyot bilan boglashdan, bilimlarni faqat o`qitish yo`li bilan emas, balki o`quvchilar ishtirokida amaliy qo`llanilishi bilan

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан “совет мактаби” га ўтиш.... – Б. 63.

olib borilgan.

Umuman, maktab bilimli ishchilar va dehqonlarni yetkazishga xizmat qilgan.

1918-yil sentyabrda Beshyog'ochdagি rus-tuzem maktabi binosida yangi mehnat maktabi ochildi. Unga mahalliy millat farzandlari qabul qilinib o`qish o`quvchilarining ona tilida olib borildi. Maktabda dastlab o`n ikkita yetim bola ta`lim olgan. So`ngra, butun Toshkentdan bir qancha boquvchisiz bolalar terilib mazkur maktabdagi mashg`ulotlarga jalb etilgan. Maktabda o`g'il bolalar bilan birga ularga nisbatan kamroq qizlar ham o`qitilgan. Maktabni mehnat maktabi yoki 3-internat deb atashgan. Unga Almaiy tashkil qilgan boshlang`ich maktab birlashtirilib, Almaiy nomli mehnat maktabi deb atalgan. Maktabda 6 ta sinf xonasi hamda 2 ta fan xonasi mavjud bo`lgan.

Maktabda mehnat tarbiyasi yaxshi yo`lga qo`yilgani sababli uni 1921 – 1923-o`quv yilida o`lka bo`yicha mehnat-tajriba namuna maktabi qilib o`zgartiriladi. Natijada, o`quvchilar soni 150 nafarga yetadi. 1918 – 1919-o`quv yili Toshkentda sobiq Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligining pedagogika laboratoriysi huzurida N.G. Chernishevskiy nomidagi birinchi bosqich tajriba maktabi tashkil etildi. Laboratoriya tarkibida pedagogika muzeyi, konsul`tasiya-metodika xonasi, pedagogik tadqiqot muassasasi mavjud edi. Shuningdek, maktab huzurida bir necha kabinet va komissiyalar ishlardi. Ayrim sabablarga ko`ra, pedagogika laboratoriysi yopilgach, maktab yana Chernishevskiy nomi bilan mustaqil holda ishlay boshlagan¹.

Maktabning eng muhim jihatи unda bolalar ko`proq amaliy mashg`ulotlar bilan shug`ullanar edi. Boshlang`ich sinflarda rasm chizishgan, loydan turli buyumlar yasashgan. O`rta sinflardagi mehnat darslari ko`pincha yog`och bilan ishslash maqsadida ustaxonada o`tkazilgan. VI – VII sinflarning o`quvchilarini asosan, fizika asboblarini yasash bilan shug`ullangan. Maktabning yana bir afzalligi, unda bolalarga muayyan ixtisos berilgani edi. Uning yuqori sinflarini ixtisoslashtirish uchun o`quvchilar ikki guruhga bo`lingan. Masalan, 1924 – 1925-

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 113-114.

o`quv yili VII sinf o`quvchilarining bir guruhi o`z hohishlariga ko`ra darsdan bo`sh vaqtlarida alohida soatlarda qishloq xo`jalik ishlari bilan, ikkinchi guruhi esa madaniy-oqartuv ishlari bilan shug`ullangan. Shu tariqa maktab qishloq xo`jalik va madaniy-oqartuv sohalari uchun mutaxassislar tayyorlashga moslashtirilgan.

Turkiston madaniy-ma`naviy va iqtisodiy-siyosiy hayot tarzini yuksaltirish maqsadida tegishli qator mutaxassislarni tayyorlash ehtiyoji tug'ilganligi sababli dastlab, 1896-yilda paxta zavodi qurish maqsadida hunar texnikumi, keyinchalik, 1909-yilda temir yo`l texnikumi, 1912-yilda aviasiya maktabi, Ashxobodda gilam to`qish va Turkqo`rg'onda meva quritish kurslari tashkil etilib, malakali mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

1900 – 1917-yillarda tibbiyat, san`at sohasidan kurslar va texnikumlar ochish ehtiyoji tug'ilib, ayollar uchun texnika bilim yurtlari, gimnaziya va progimnaziyalar ochilgan va ularda bichish-tikish, to`qish bilan bog`liq hunarlar o`rgatila boshlangan.

Turkistonning uchinchi s`ezdida oliy maktab tashkil qilish masalasi ko`rildi. 1918-yil 21-aprelda “Oliy maktab muassasalarini tashkil qilish to`g`risidagi Nizom” muhokama qilindi. Toshkentda xalq universitetini ochish masalasi yuzasidan fikr almashildi. Universitet tarkibida tikish-bichish to`garagi, turli kulliyotlar, kutubxona va muzey bo`lishi haqida kelishib olindi. Xalq universiteti bazasida 60 ga yaqin asosan, o`rta maktab o`qituvchilarini hamda turli texnik mutaxassislarni to`plab, Toshkent universitetini tashkil etishga qapop qilindi. Bu universitet tizimida xalq xo`jaligining turli sohalari uchun qisqa muddatda kadrlar tayyorlash va “Amerika tipida” o`rta politexnika kurslarini ochish, ularga 1200 nafar yoshlarni qabul qilish rejalashtirildi. Universitet rahbari A.V. Popov ta`limiy ishlarni yaxshilash uchun jonbozlik ko`rsatgan olimlardan edi¹.

1918-yilda, Toshkentda Sharqshunoslik instituti tashkil etildi. Institutning ikkita: ilmiy-nazariy va amaliy bo`limi mavjud bo`lib, ularda o`qish muddati 4 yil qilib belgilangandi. Jami 5 nafar o`qituvchi va 21 nafar xodimlar ishlardi. Bu institutning tashkilotchisi sharqshunos olim V.V. Bartol'd bo`lib, 1920-yil may

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 114

oyida universitet qoshida musulmonlar seksiyasi barpo etildi.

Sovetlarning xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus sohasida yuritgan siyosatining muhim yo'naliishlaridan biri, bu oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish edi. Har qanday tuzumda bo'lgani singari, sovet hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari va ideallari ruhida tarbiyalangan, unga sadoqat bilan xizmat qiladigan ko'plab yuqori malakali, o'qimishli, ziyoli kadrlarga o'tkir ehtiyoj sezardi. 1920-yil sentabrida Toshkentda tashkil etilgan Turkiston Davlat universiteti shu maqsadga yo'naltirilgan edi. Keyinchalik, O'rta Osiyo universiteti maqomini olgan bu oliygoh o'lkada oliy ta'limni rivojlantirish, yuqori mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'ldi. Biroq, bu o'quv dargohi professor-o'qituvchilarining mutloq tarkibi yevropalik millat vakillaridan tashkil topganligidan, undagi o'qitish tizimi birinchi kundanoq faqat rus tilida olib borildi. Unda 43 nafar professor va 43 nafar o'qituvchi Moskvadan kelib o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu esa mahalliy millat yoshlari uchun unga kirib ta'lim olishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirardi. Shuning uchun ham universitet talabalari safida ularning salmog'i juda ozchilikni ashkil etardi. Jumladan, 1923/24-o'quv yilida O'rta Osiyo Davlat universitetida ta'lim olayotgan 2047 nafar talabandan faqat 51 nafari mahalhy millat yoshlari edi, xolos. 1924/25-o'quv yilida bu universitetda 2440 talaba va ishchilar fakultetida 889 yoshlar ta'lim oldi. Universitetda Fitrat, Avloniy, Qori-Niyoziylar ham faoliyat ko`rsatgan edilar¹.

XX asrning 20-yillarda O`zbekistonda xalq ta`limi kompartiya va sovetlarning hukmronligi va mafkuraviy iskanjası sharoitlaridagi taraqqiyot yo`lidan borib, bu sohada bir qadar tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi. Ta`lim taraqqiyotida barcha tadbirlar va o`zgirishlar avvalo sotsialistik va kommunistik jamiyat quruvchilarni tarbiyalash va tayyorlashga qaratilgan edi. XX asr oxiriga kelib butun dunyoda har jihatdan o`zining jozibadorligini yo`qotgan va obro`sizlangan kommunistik mafkura 30 – yillardagi sarobga o`xshagan g'oyalari bilan odamlar qalbi va ongidan joy ola bilmadi, o`z maqsadiga erishish uchun

¹ Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 273.

qatag' onlik siyosati hamda mafkuraviy tazyiq siyosatini amalga oshirdi. Bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalari siyosiylashtirilgan, mafkuralashtirilgan va buyuk davlatchilik shovinizmi g'oyalariga bo`ysundirilgandi. Jumladan xalq ta`limi ham ana shu g'oyalarni amalga oshirishga xizmat qilishi lozim edi.

Kompartiya va sovetlarning xalq ta`limi sohasidagi bosh yo`li xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan milliy ta`lim tizimi va tamoyillarni inqilobiy zarb va sur`atlar bilan yo`q qilish, uning ma`naviy – ruhiy qadryatlarini oyoq osti qilish, yo`li bilan o`zining yaroqsiz mafkurasini singdirishga qaratilgandi.

Mustabid sovet tuzimi XX asrning 20 – yillardayoq milliy ta`limni barbod qilish, islomiy, sharqona odob-axloq asoslarini shakllantiradigan barcha madaniy muassasalarni barham berishga kirishdi. Bu borada O`z KP MQ VI plenumidagi “Musulmon ruhoniylari va maktab to`g’risida” gi qarorida: “Isloh qilingan maktablar zararli ekanligini hisobga olib, bundan buyon vaqf maktablarini isloh qilishga aslo yo`l qo`yilmasin, shu vaqtgacha isloh qilingan maktablar o`rniga yangi sovet maktablarini ochish, shuningdek, isloh qilingan maktablarda diniy fanlarni o`qitishni hamda umuman ruhoni shaxslar o`qitishini ta`qiqlash yo`li bilan ham ularni yopish uchun butun choralar ko`rilsin”¹, - deb qat`iy belgilab berilgan edi.

Mustabid tuzum an`anaviy milliy maktablarni yo`q qilishning siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy hamda huquqiy asoslarini vujudga keltirishga shu dastlabki yillardayoq jadal kirishgan edi. Ana shunday ahvolda 1919-yilgacha usuli savtiya maktablari bir ko`rinib, bir ko`rinmay faoliyat ko`rsatdi. O`lka o`quv yurtlari bosh inspektori, xususan, N.Ostroumov, V.Nalivkin, S.Gramenitskiy, P.Aznachaev kabi nozirlar maktab dasturlari, kitoblarini sinchiklab tekshirar edilar. Turkiston gubernatori kavaleriya general-leytenant Samsonov quyidagicha ko`rsatma beradi:

“1. Boshlang’ich umumta`lim bilimi beradigan usuli jadid maktablari xalq o`quv yurtlari inspeksiysi ruhsati bilan ochiladi.

2. Usuli jadid maktablari o`qituvchilari ularda ta`lim olayotgan o`quvchilarni o`z qavmlaridan tayinlashni nazorat qilib turish zarur.

¹ Аъзамхўжаев А. А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С.125.

3. Maktablarni ochganlarga shahar va qishloq jamoalariga bu maktablarda umum davlat tili – rus tilini o`qitishni joriy qilish tavsiya etilsin.

4. Bunday maktablarni ochishda mакtab ochuvchi shaxs yoki jamoadan maktabda o`quv ishlari olib boriladigan o`quv kursi dasturi bilan birga darsliklar nomini taqdim etishni talab qilish zarur.

5. Mening farmoyishim e`lon qilingan kundan boshlab barcha mavjud usuli jadid maktablarida ushbu qoidalarga amal qilish majburiydir”¹.

An`anaviy maktabdan “soviet maktablari”ga o`tish jarayoniga dastlab mahalliy ziyorilar goh yashirin, goh ochiq qarshiliklar ko`rsatishgan. Ana shunday ma`rifatparvarlardan biri Munavvar Qori mакtab islohoti, yangi tipdagi o`rta va oliy o`quv yurtini tashkil etishning barcha masalalari bilan jiddiy shug`ullandi. Hokimiyat tepasiga kelgan bir hovuch shovinistlar maorif-madaniyat rivojini asosan o`z xalqlari xizmatiga qo`yadilar. Ana shunday tadbirlardan biri – Turkiston harbiy shtabi qoshida Sharq fakul`tetini tashkil etish, so`ng uni Xalq dorilfununiga aylantirib, konservatoriya ochish bo`ldi. Tatar va o`zbek ziyorilari birlashib, Xalq dorilfununi ochish uchun muzokara o`tkazadilar. Muzokarada “Turon”, “Muallimlar jamiyat”, “Guliston” va boshqa jamiyatlar yig`ilishib bu masala ko`rib chiqiladi.

Yangi Sho`ro hukumati avvalgi ta`lim tizimi, o`quv-tarbiyaviy ishlarni isloh qilish, Xalq maorifi tizimining yangi shaklini joriy etish yuzasidan bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Bunday tadbirlarni amalgalashish Turkistonda Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 14-maydagi dekreti asosida boshlandi. Xalq maorifi tizimini tasdiq etish respublika Xalq maorifi Komissarligiga va uning mahalliy Sovetlar huzuridagi bo`limlariga yuklandi. O`quvchilarga ilm-fanning zarur asoslari bilan bir qatorda, mehnat ko`nikmalarini ham bera oladigan yagona sho`ro “Mehnat Maktabi” xalq maorifi uchun asosiy negiz qilib olindi.

Lekin yangi maktablarni vujudga keltirish bir qancha muammolarga duch keldi. Ayniqsa, o`qituvchilarning yetishmasligi, darsliklarning va mакtab

¹ Мунаввар Кори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. – Т., 1998. – Б. 156.

jihozlarining yo`qligi ishni yanada qiyinlashtirdi. Sobiq Turkiston ASSR da yangi tipdagi xalq maorifi tizimini tashkil etishda hukumat RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining “Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish” to`g’risida dekretga muvofiq sobiq Turkiston ASSR Xalq Maorifi Komissarligi aholining hamma tabaqalaridan bo`lgan bolalarni qaysi millatga va jinsiga mansub bo`lishidan qat`i nazar maktablarda tekin o`qitishni Turkiston respublikasida joriy qilish to`g’risida buyruq chiqardi. “Turkiston respublikasi Xalq Komissarlari Soveti 1918-yil may oyining boshida, maktab tubdan qayta quriladi”, deb e`lon qildi. 1917-yil to`ntarishigacha mavjud maktab va umuman, bolalar hamda o`smirlarni o`qitish ishining tashkil etilishiga xos bo`lgan sinfiy tabaqaviylik hamda kamsituvchilikni tezroq bartaraf etish maqsadida shunga qaror qilindi. Bu haqda chiqarilgan hukumat murojaatnomasida: “O`lka Sovetlari s`ezdining irodasini bajara borib, darhol yagona va hamma uchun ochiq maktab tashkil etishga kirishildi. Barcha kirish imtihonlari bekor qilinadi. Hamma bosqich va idora maktablari endilikda yoshi, millati va dinidan qat`i nazar o`qishni istagan hamma kishilar uchun ochib qo`yiladi”, – deyilgan edi. Ushbu murojaatni o`lka aholisi xalq maorifi sohasidagi burilish, chuqur demokratiyalashtirishning yaqqol dalili, deb baholadi¹.

Turkiston, respublikasi partiya tashkiloti hamda hukumatining xalq maorifi sohasida amalga oshirgan yangi siyosatiga javoban o`lkada darhol juda ko`plab maktablar ochilgan, ulardagi o`quvchilar soni bir necha baravar ko`paygan. 1918-yilning iyunida Toshkentda maorif xodimlarining birinchi s`ezdi ochilib, unda xalq maorifi sohasidagi ahvol muhokama qilindi hamda uni qayta qurish bo`yicha konkret tadbirlar belgilandi. 1918-yil dekabrda Turkiston Respublikasi xalq maorif komissarligi buyruq chiqarib, hamma maktablarda ona tili va rus tili o`qitish to`g’risida qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorni qo`llab-quvvatlanilishi natijasida mahalliy millatga mansub xotin-qizlarni madaniyatga, ilm-fanga, ijtimoiy hayotda faol qatnashishga jalb qilish harakati jadal yo`sinda avj olib ketdi. 1918-yilning avgustida esa Turkiston

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан “совет мактаби” га ўтиш.... – Б. 69-70.

Respublikasining Markaziy Ijroiya Komiteti maktablarda o`quvchilarni o`z ona tilida o`qitishga o`tish to`g`risida dekret chiqardiki, bu o`lka xalqlariga milliy madaniyatlari istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Oradan uch oy o`tgach: “Turkiston maktablarining strukturasi to`g`risida Nizom” chiqarildi. Maktablarni yangi ijtimoiy negizlarda tashkiliy jihatdan tartibga solish hamda qayta qurish maqsadida Xalq maorifi komissarligining buyrug`iga muvofiq, mudirlik, inspektorlik va direktorlik lavozimlari bekor qilindi, saylab qo`yiladigan rais hamda kotib rahbarligida ishlovchi kollegial organ – pedagogika kengashi umumta`lim maktablariga boshchilik qiladigan bo`ldi.

1918-yil noyabr’ oyida Xalq maorifi kengashlari o`quv yurtlarini, ularning turlarini hisobga olgan holda, ro`yxatdan o`tkazdilar va shu asosda yangi maktablar ochish hamda ularni joylashtirish ehtiyojlari to`g`risidagi takliflarni ishlab chiqdilar. Mazkur tadbir ham o`lkada maorif ishini tartibga solishda muhim rol’ o`ynadi. Masalan, “Mehnat maktablari” deb atalgan maktablar ochilib, ularda o`quvchilarning mehnat tarbiyasiga, maktabda politexnika ta`limini amalga oshirishga katta e`tibor berildi. O`lkada mehnatkashlar ommasi madadiga suyangan holda yangi tipdagi maktablar vujudga kela boshladи. Jumladan: Toshkent shahrining eski shahar qismida xalqning bevosa ishtiroki bilan dastlabki 13 ta o`zbek maktabi, Qo`qonda 17 ta o`zbek maktabi va bitta rus maktabi, Andijonda 10 ta o`zbek maktabi va 7 ta rus maktabi tashkil etildi. Shunday qilib, 1918-yilning bahoriga kelib respublikada ishlab turgan maktablarining soni 330 taga yetdi, 1918/1919-o`quv yilining boshida esa Toshkentning o`zida 75 ta maktab va Samarqand viloyatida 100 dan ortiq maktab ishlab turgan. 1919/20-o`quv yilining boshida ishlab turgan maktablar Farg`ona viloyatida 350 taga, Sirdaryo viloyatida 839 taga, Samarqand viloyatida 216 taga yetdi.

Maktablarni tashkil etishda mahalliy aholi orasidan birinchi bo`lib yetishib chiqqan muallimlar Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullayev, Abdurauf Fitrat, Ishodxon Ibrat, T.N. Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, To`xtanazar Shermuhamedov, Ergash Komilov, Odilxon Sharofiddinov va shu singari ziyorilar faol qatnashdilar.

Xalq maorifi komissarligi mahalliy xususiyatlarni hisobga olib, yerli millatlarning qizlari uchun maxsus maktablar ochib berdi. Shunday maktablardan biri 1917-yilda Beshyog'ochning Zevak (hozirgi Birlik) mahallasida Bashorat Jalilova tomonidan tashkil etildi. Bu maktabda 22 ta o'zbek qizi o'qib turdi. 1920-yilning boshida bunday maktablar Toshkentda 12 ta, Andijonda 2 ta ochilgandi.

Shunday qilib, o'lkada har yili o'rta hisobda 9 tadan yangi tipdagi maktab ochilib turdi. Mahalliy aholidan milliy o'qituvchilar tayyorlash, milliy darsliklar nashr qilish, Sho`ro hokimiyati mafkurasiga asoslangan ta`lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish ishlari yuzasidan bir qator tadbirlar belgilandi. Xalq maorifi komissarligi pedagoglar ilg'or tajribasini yoyish hamda ularning metodik jihatdan tayyorgarligini oshirish to`g'risida g'amxo'rlik qilib, toshkentlik ilg'or muallimlarning tashabbusini ma`qulladi. Ular Turkistonda Sho`ro hokimiyatining dastlabki maktablarini tashkil etib, yangi maktab muammolarini o`rganish bilan cheklanmay, balki maktabshunoslik, xususiy metodika hamda pedagogika masalalariga oid materiallarni ham nashr qildilar. Jumladan, "Umumta`lim maktablari bo`limining byulleteni" chiqarildi, fan predmetlari bo'yicha metodik xonalar tashkil etildi¹.

1918 – 1919-yillardayoq o'zbek tilida o'quv adabiyotlarini chop etishga kirishildi. Garchi o'sha vaqtda darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari nashr etishning ilmiy jihatdan asoslangan istiqbol rejaliari mavjud bo`lmasa-da, bunday adabiyotning chiqarilishi o'qituvchilar ishida katta yordam berdi, bu borada kelajakda muhim ishlar amalga oshirilajagiga umid tug'diradi. Shu davrda nashr etilgan o'quv adabiyoti orasida Kruberning "Boshlang'ich geografiya" (u rus tilidan tarjima qilingan edi), tabiiy geografiya bo'yicha o'qituvchilar uchun qo'llanma, "Turkiston" (u Kruber yozgan "Rossiya geografiyasi ocherklari"dan o'zbekchaga ag'darilgandi) qo'llanmasi, birinchi va ikkinchi sinflar uchun arifmetika masalalari to`plami (Valishevning tatar tilidagi darsligining tarjimasи) T.N. Qori-Niyozovning tabiatshunoslikka oid qo'llanmasi ("Tabiatning bir bo`lagi") shular jumlasidandir.

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан "совет мактаби" га ўтиш.... – Б. 69-70.

1920-yilgacha o`quv adabiyotini chop etish ishlari bilan respublika Xalq maorifi komissarligi shug`ullangan edi, shundan so`ng bu ish yangi tashkil etilgan Turkiston Davlat nashriyoti zimmasiga yuklatildi.

Sho`ro hukumati xalq maorifiga doir tadbirdarni amalga oshirar ekan, o`qituvchilar tayyorlashga ko`proq e`tibor berdi. Turkistonda 1917-yil to`ntarishidan oldingi davrdan qolgan muallimlar seminariyasini hisoblamaganda, o`quv-moddiy baza yo`q edi. Shuning uchun dam o`qituvchilar, tayyorlash ishi bu yerda juda murakkab bo`ldi. Milliy maktablar uchun muallimlar tayyorlashni deyarli yangidan boshlash kerak edi. Tez orada Toshkent o`qituvchilar tayyorlashning markaziga aylandi, 1918-yilning iyunida bu, yerda dorilmuallimin (yerli millat yosHLaridan muallimlar tayyorlash instituti) ochildi. Muallimlar tayyorlash uchun olti oylik va qisqa muddatlik o`lka kurslari ochildi¹.

Sovet hukumati mahalliy avom xalq ishonchini qozonish, eng avvalo, kambag`allar, yo`qsillar farzandlarini o`qitish, ularni savodli, bilimli qilish uchun o`zining dasturiy maqsadiga javob beradigan sovetcha ta'limni rivojlantirishga asosiy e'tibor berdi. 20-yillarda O`zbekiston hayotidan muhim o'rIN olgan birinchi va ikkinchi bosqich maktablari shunday ta'lim berishga mo'ljallangan bilim dargohlari edi. Masalan, 1921-yilda Turkistonda 165645 o`quvchisi bo`lgan 1965 ta 1-bosqich (boshlang`ich) va 6500 o`quvchisi bo`lgan 58 ta 2-bosqich (o`rta) sovet maktablari faoliyat ko`rsatgandi.

1920-yil 17-sentabrda Turkiston ASSR hukumati o`lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo`lgan kishilarni o`qitish va savodxon qilish to`g`risida dekret qabul qildi. Bundan ko`zda tutilgan maqsad mahalliy xalqni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta'siriga olish, uning yangi tuzumga xayrihohligini kuchaytirish edi. Shularni hisobga ollb respublikaning turli hududlarida son-sanoqsiz savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilib, faoliyat ko`rsatdi. Ularga turli yoshdagи kishilar, erkaklar va ayollar jalg qilinib, o`z savodlarini chiqardilar. Jumladan, 1928 – 1932-

¹ Хошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б.272-278.

yillarda O'zbekistonda jami 700 ming nafar kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo`lsa, bu ko'rsatkich 1933 – 1937-yillarda 1,4 mln. kishini tashkil qilgan¹.

1923-yilda Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi huzurida savodsizlikni tugatish bilan shug'ullanuvchi o'lka favqulodda komissiyasi tuzildi. Respublikadagi barcha oliy o'quv yurti talabalari hamda ishchi fakul'tetlaridagi o'quvchilarning hammasini savodsizlikni tugatishga safarbar qilindi. Milliy chegaralash arafasida Turkiston Davlat universiteti yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan eng katta manbagina bo`lib qolmasdan, shu bilan birga, Markaziy Osiyoda oliy ta`lim tizimini vujudga keltirish uchun baza bo`lib qoldi.

30-yillarga kelib respublikada malakali o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan ko'plab pedagogika institutlari va O'rta maxsus pedagogik bilim yurtlari tashkil qilindi. Bu esa xalq ta'limi tizimi faoliyatini ancha yaxshilashga turki berdi. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 1928/29-o'quv yilida respublikamizda o'qituvchilar soni 5,5 ming kishiga teng bo'lgan bo`lsa, bu ko'rsatkich 1932/33-o'quv yilida 19 ming kishini, 1941-yilda esa 42 ming kishini tashkil etdi. Garchand bu raqamlar xalq ta'limi tizimida yuz berib borgan muayyan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatsada, biroq bu sohada huddi shu davrlarda ko'plab jiddiy xato, nuqsonlar, yo'qotishlar sodir etilganligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Sovet hukumati ta'lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to'liq ravishda o'z izmiga bo'ysundirish maqsadida arab alfavitiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1929-yilda arab imlosi asosidagi o'zbek yozushi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tildi. Bundan ko'p vaqt o'tar-o'tmasdan, 1940-yilga kelib sovetlarning birdan-bir yagona orzusi bo'lgan kirillisa – rus alfaviti negiziga qurilgan yozuvga o'tildi. Birgina o'zbek yozuvini o'zgartirish borasida qo'llanilgan bunday xatti-harakatlar respublika xalq ta'limining keyingi taqdiri, istiqboli uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Eng achinarlisi, buning natijasida necha asrlar davomida xalq dahosi, buyuk bobokalonlarimiz aql-zakovati tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy manbalar,

¹ Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 270.

asarlar, risolalarni o'rganish musnkul muammoga aylanib qoldi. Negaki, ular arab yozuvida bitilgan edida!

Arab imlosida nashr etilgan milliy ruhdagi ko'plab o'quv adabiyotlari ham ayni shu yillarda taqiqlab qo'yildi. Yana shuni aytish joizki, shu davrda ommaviy tarzda "sovet ta'limi"ni olib, turli maktab va savodsizlik kurslarini bitirib, zo'rg'a savodini chiqarib endigina hayotga qadam qo'yanlar "ishonchli shaxslar" sifatida topilib, mafkuraviy saralash asosida o'z vazifalaridan chetlatilgan tajribali, bilimdon, professional ziyyolilar o'rnini egallab borganlar.

Ayni paytda mahalliy aholi yoshlari orasidan maxsus tanlab olinib, partiya, sovet va xo'jalik organlarida ishlash, sotsialistik qurilish jahbalarida aktiv faoliyat ko'rsatishga da'vat etilgan rahbariy kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Negaki, hukmron partianing "oltin fondi" hisoblangan bunday kadrlarni ko'plab tarbiyalab, voyaga yetkazish O'zbekiston sovetlar siyosatini to'laqonli o'tkazishda muhim kafolat bo'lib xizmat qilardi-da. Shu maqsadlarni ko'zda tutib 1923-yilda Turkiston kommunistik universiteti ochildi. Unda o'lkaning bo'lg'usi sovet kadrlari "markscha-lenincna" talimot negizlarini qunt bilan egallab bordilar. Shuningdek, bu davrda Turkistonda 2 ta markaziy, 5 ta viloyat va 5 ta uyezd partiya sovet maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ularda o'qiyotgan 1312 nafar tinglovchining 10 foizini xotin-qizlar tashkil etardi.

Moskvadagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida esa 1923-yilda 77 nafar turkistonlik yoshlar ta'lim oldi. Ulardan o'zbeklar 24, turkmanlar 24, qozoq-qirg'izlar 29 kishi edi¹.

Sovet hukumati 20 – yillarda ta`lim sohasida bir qator tadbirlarni amalga oshirgan bo`lsa-da, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi oldida ham hali ko'plab jiddiy muammolar ko'ndalang bo'lib turardi. Maxsus o'quv qo'llanmalari, darsliklar, boshqa o'quv-uslubiy jihozlar milliylik, yurtning o'ziga xoslik jihatlaridan nihoyatda uzoq bo'lib, ular asosan Markazdan tayyorlab yuborilardi. Mahalliy professor-o'qituvchilar tarkibi nihoyatda kam bo'lganligi bois ko'pchilik

¹ Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 275.

fanlar va predmetlarning o'qitilishi asosan yevropalik olimlar tasarrufida edi. Oliy ta'lif tizimidagi o'qish jarayoni asosan rus tilida olib borildi. Buning ustiga 30-yillarda avjiga mingan stalincha qatag'onlik shamshiri ko'proq milliy kadrlar boshida sindiki, bundan respublika ta'lif tizimining barcha bo'g'inlari katta ziyon-zahmat chekdi, ancha mahrumliklarga duchor bo'ldi.

II.2. 30 – yillarda sovet hukumatining O`zbekistonda amalga oshirgan ta`lim sohasidagi isloxitlari va uning natijalari

XX asr 20 – 30-yillari O`zbekistonda xalq ta`limida keskin burilishlar amalga oshirilishi 1930-yilning 25-iyulida VKP (b) MKning “Umumiy boshlang'ich majburiy ta`lim to`g'risida”gi qarori asosidagi O`zbekiston SSR XKS ham 1930-yilning 23-avgustida “O`zbekiston SSRda boshlang'ich umumiy majburiy ta`limga o'tish to`g'risida”gi qarorlarning qabul qilinishi bilan bog'liq. Bu qarorga ko`ra, 1930 – 1931-o`quv yilidan boshlab shaharlarda, fabrika va zavodlar joylashgan qo`rg'onlarda 8, 9, 10 yoshga yetgan bolalar, ommaviy va yoppasiga jamoalashtirishtirilgan rayonlarda sovet xo`jaliklari (sovxozi) va MTSlarda 8 yoshli bolalar ham umumta`lim maktablariga qamrab olinishi kerak edi.

O`zbekistonda 1930 – 1931-o`quv yilidan boshlab boshlang'ich majburiy ta`limning joriy qilinishi juda katta tashkiliy ishlarni hamda katta moliyaviy sarf-xarajatlarni talab qilar edi. Bu tadbirni amalga oshirish uchun respublika miqyosida maktablar qurish, o`qituvchilar tayyorlash, darsliklarni yaratish, o`quv qurollari bilan ta`minlash singari murakkab vazifalarni bajarishga to`g'ri kelardi. Bu murakkab vazifalarni hal qilish maqsadida O`zbekiston SSR XKS qoshida umumta`lim qo`mitasi tuzildi. 1930-yilning 2-dekabrida ana shu qo`mitaning yig'ilishida 3 ta komissiya tuzildi¹.

Bu komissiyalar xalq ta`limi ishini yo`lga qo`yishning barcha tashkiliy, xo`jalik-moliyaviy, ommaviy-madaniy sohalariga rahbarlik qilishi darkor edi. Hisobotlarda ko`rsatilishicha, 1930-yilning o`zidayoq boshlang'ich sinflarga kelib

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан “совет мактаби” га ўтиш.... – Б. 73-74.

o`qiydigan o`quvchilar soni 153 ming kishiga, yoki qariyb ikki martaga oshdi. Respublikada o`zbek va rus tilidagi maktablardan tashqari tojik, qozoq, turkman, yahudiy va uyg`ur tilida o`qitiladigan sinflar va maktablar ochildi.

Respublikada umumiy majburiy boshlang`ich ta`limga o`tilishi ijtimoiy mohiyatiga ko`ra, xalq farzandlarini savodxon qilishga qaratilganligining o`zi ahamiyatlidir. Ammo, respublika miqyosida bu tadbirni amalga oshirish tayorgarliksiz, aniq hisob-kitobsiz, mavjud imkoniyatlarni hisobga olmay joriy etilganligi uchun juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgan edi. Nihoyatda katta ko`lamdagi bu vazifani hal qilish juda ko`p mutaxassislarini talab etardi, afsuski, o`sha davrda ixtisosli o`qituvchilar mutlaqo yetarli bo`lmay, o`qituvchilarni taylorlashning moddiy va tashkiliy asoslari maydonga keltirilmagandi.

Keng miqyosida bolalarni maktablarga jalb qilish uchun maktablar uchun moslashtirilgan binolar yo`q, ularni qurish uchun esa avvalambor vaqt talab etilib, undan so`ng esa juda katta mablag`, qurilish ashyolari va cheksiz ishchi kuchi kerak bo`lardi. Hatto mavjud binolarni tuzatish, ta`mirlash uchun ham vositalar yetishmas edi.

Buning ustiga, 1930-yildan boshlab respublikada, asossiz ravishda bekor qilingan arab imlosidagi o`zbek yozushi o`rniga, “yangi o`zbek alifbosi”, ya`ni lotin imlosidagi o`zbek alifbosiga o`tishga kirishilgandi¹. Respublikaning 100 foiz aholisi yangi alifboden xabarsiz bo`lib, xalq ta`limida hamma narsani yo`qdan boshlash kerak edi. Umumiy majburiy ta`lim haqidagi qaror va qonunlarni amalga joriy qilish uchun birinchi navbatda o`qituvchilarni yangi alifboda savodxon qilish zarur edi. Shunday ko`lam va miqyosdagi vazifalarni bajarishga O`zbekiston tayyor emas edi.

O`qituvchi va o`quvchilarni tegishli o`quv qurollari, darsliklar va boshqa jihozlar bilan ta`minlash yo`lga qo`yilmagan edi. Umumta`lim ishining bevosita tashkilotchisi bo`lgan Maorif Xalq Komissarligi va uning joylardagi bo`g`inlari o`z faoliyatlarini to`la amalga oshira olmayotgandi. Ayrim viloyatlar va rayonlarda

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 115.

umumiy majburiy ta`lim ishidan norozi bo`lgan aholining qarshiligi sezilayotgan edi. Shu yili Samarqand viloyatidagi Juma qishlog`ida uch opa-singil Safarovalarning vahshiylarcha o`ldirilishi kabi dahshatli voqealarning boshqa viloyatlarda takrorlanishiga sabab, birinchidan, aholi o`rtasida targ`ibot va tushuntirish ishlarining olib borilmaganligi bo`lsa, ikkinchi sabab, sovet maktablarini tashkil qilishda mahalliy millat xalqlari urf-odatlari, ta`lim va tarbiya jarayonlaridagi o`ziga xos xususiyatlarning mutlaqo inobatga olinmaganligi, aholi o`rtasida kuchli ta`sir va obro`ga ega bo`lgan din ahllariga nisbatan “inqilobiy hujum”, ularning quvg`in qilinishi, arab imlosidagi diniy va dunyoviy kitoblarning vahshiylarcha kuydirilishi, diniy-ahloqiy va shariat qonunlarining poymol qilinganligidir. Hali 30 – yillarning boshida o`g'il va qiz bolalarni bir xonaga kiritib o`qitish yoki qiz bolalarga erkak kishining ta`lim-tarbiya berishini, ming yillardan beri davom etgan qiz va o`g'il bolalarning boshqa-boshqa o`qitish jarayonini bitta qaror bilan buzilishi respublika musulmon aholisining noroziligini uyg`otgan edi. Bu qarorlar qanchalik darajada ilg`or, inqilobiy ahamiyatga ega bo`lmasin, birinchi navbatda milliylikka va milliy ta`limga qarshi qaratilgan edi, bu holat respublikada xalq ta`limi ishini yo`lga qo`yilishiga zarar qildi.

Umumiy majburiy boshlang`ich ta`lim endigina joriy etilayotgan paytdan boshlab, maktab o`qituvchilarini va o`quvchilarni paxta yig`im-terimiga madaniy xizmat ko`rsatish va mehnat kunlarini hisoblab berishga yordamlashish shiori ostida bu ishga jalb qilindi va maktablar yopib qo`yildi. 1930 – 1931-o`quv yilida respublika xalq ta`limida amalga oshirilgan tadbirlardan biri maktabni turmush bilan, ishlab chiqarish bilan bog`lash maqsadida maktabda politexnik ta`limning joriy qilinishi bo`ldi. Maktablarda ijtimoiy foydali mehnatni joriy qilish, o`quvchilarni, ayniqsa, shahar maktablarini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishtirish, maktabdan boshlab o`quvchilarni kasb tanlashga yo`naltirish, politexnik ta`limni joriy qilishning asosiy maqsadi bo`lishi kerak edi. Shuning uchun respublika rayonlarida maktablar jamoa xo`jaliklariga, davlat xo`jaliklariga, MTSlarga va sanoat korxonalariga biriktirila boshlandi. Shu o`quv yilida

O'zbekistonda maktablarning ishlab chiqarish bilan bog'lanish jarayoni 60 – 70 foizga yetgan¹.

Xalq ta'limi ishida o'quvchilar bilimiga to'g'ri baho berish, o'quv-tarbiya ishining sifatini yaxshilashda ijobiy ahamiyat kasb etadi, bu davrda o`zlashtira olmagan o'quvchilar o`z sinfida ikkinchi yilga qoldirilgan. Buning sababi:

Birinchidan, o'quv yilining turli sabablari bilan qisqartirilishi, ya'ni maktab o`quvchilarining qishloq xo`jalik ishlariga safarbar qilinishi, o'quv yilining o`z vaqtida boshlanmasligi, o'quv yilining muddatidan oldin tugatilishi, maktablarda qish kunlarida darslarni olib borish sharoitlarining yo`qligi, sinf xonalaridan yomg'ir o'tishi, isitilmasligi, derazalarning yo`qligi va boshqa sabablar natijasida 225 kunga mo`ljallangan o'quv yilning 160-180 kunga qisqartirilishi;

Ikkinchidan, maktabda xalq maorifi organlarining hamma bo`g'inlarida o`z sohasining mutaxassislari rahbarlik qilmayotganligi oqibatida, usuliy yordam va rahbarlik qilishning mutlaqo yo`qligi, o'qituvchilarning yetishmasligi, past ixtisosligi;

Uchinchidan, maktablarda dars soatlarini past saviyada tashkil etilishi va vaqtdan unumli foydalanmaslik;

To`rtinchidan, maktab o`quvchilarining o'quv qurollari va darsliklar bilan ta`minlanmaganligi, xususan, kambag'al o'quvchilarning esa kiyim-bosh bilan ta`minlanmaganligi;

Beshinchidan, maktab o'qituvchilariga nisbatan g'amxo'rlikning deyarli yo`qligi, ularning moddiy-maishiy turmush sharoitlarining pastligi va boshqa holatlar bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, 1930 – 1931-o'quv yilida respublikaning qishloq rayonlarida boshlang'ich ta'lim maktablari o'quvchilarning maktabga kelmasligi ham ayj olgan bo`lib, butun respublikada 30,2 foizni, tashkil etgan¹.

Maktab dasturlari hajmida bilimga ega bo`lmagan o'quvchilarning maktabdan chiqarilishi sohasida ham "yuqori ko`rsatkich" larga erishilib,

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 115.

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан "совет мактаби" га ўтиш.... – Б. 76.

maktabdan ketib qolganlar 1936 – 1937-o`quv yilida 2240 kishi bo`lsa, 1938 – 1939-o`quv yilida turli sabablar bilan maktablardan ketib qolganlar soni 67 760 kishiga yetdi yoki umumiy o`quvchilarning 6,1 foizini tashkil yetdi.

Respublika maktablarida o`quvchilarning soni yildan-yilga oshib borishi kuzatiladi. 1939 – 1940-o`quv yilida 1.181500 o`quvchiiga yetgan edi. Arxiv hujjatlari va davriy matbuot raqamlarning tahliliy sifat ko`rsatkichlarining pastligini ko`rsatadi, bu davrda raqamlar ortidan quvish, ta`lim sohasida ham yaqqol ko`zga tashlanadi.

Maktab yoshidagi bolalarining o`qishga to`la jalb qilinmaganligi, o`zlashtirishning pastligi natijasida bir sinfda ikki yil o`qishning o`sishi, maktablarda o`quv qurollari va darsliklarning yetishmasligi, maktablardagi tozalikning yomonligi, umuman xalq ta`limidagi barcha salbiy holatlar “xalq dushmanlarining ishi” deb baholanar edi. Aslini olganda, xalq ta`limi sohasidagi muvaffaqiyatsizliklarning bosh aybdori qovushmagan xo`jalik yuritish tizimi bo`lgan. Faqat, 1937-yilda Toshkent shahridagi maktablardan 22 o`qituvchi, Qo`qon, Samarqand va Buxoro shaharlaridan 50 dan ortiq o`qituvchi va maktab rahbarlari “xalq dushmani” deb “fosh etilgan” va vazifalaridan olinib, qatag’on qilingan. Respublikadagi pedagogika oliy o`quv yurtlarining 8 nafar direktoridan 5 tasi “xalq dushmani” deb “fosh etilgan” va ishdan olingan. Fitrat, G’ozı Yunusov, Otajon Hoshimov, Po`lat Soliyev kabi mashhur olim va jamoat arboblari xalqning eng ashaddiy dushmanlari, uchiga chiqqan burjua millatchilari, respublikada 3700 o`qituvchi yetishmasligining bosh sababchisi, aybdorlari deb qoralandi va jismonan yo`q qilib yuborildilar. Hech qanday aybi va gunohi bo`lmagan xalq ta`limining minglab jonkuyarlari, taniqli olim va rahbarlari mavjud totalitar ma`muriy-buyruqbozlik tuzumining qurbanlari bo`lgan edilar. Respublika xalq ta`limining muvaffaqiyati ko`p jihatdan yaxshi rahbar kadrlarni tanlash va joy-joyga qo`yish siyosatiga bog’liq. Mutxassislar masalasi kompartiya va sovetlar ihmiyorida bo`lib, ular joylarda o`zlari istagancha siyosatbozlik qilganlar. Zomin tumanida 1938-yilning 5 oyida xalq ta`limi bo`limining 3 nafar mudiri, Kuybishevda – 6, Mirzacho`lda – 3, Kogonda – 3, Izboskanda – 3 nafar va boshqa

ko`plab rahbarlar almashtirilgan. Rahbarlarning tez-tez almashtirilib turilishi xalq ta`limi ishini rivojiga salbiy ta`sir qiladi¹.

Respublika maktablarini boshqarish murakkabligining yana bir tomoni, maktablarda ko`plab filiallarning mavjudligi edi. Masalan, Kattaqo`rg'on rayonidagi 28-maktabning filiali undan 16 kilometr uzoqda bo`lgan, bu holat ko`plab maktablarda mavjud edi. Farg'ona viloyatidagi 1.913 maktabning 469 ta filiali bo`lib, maktablarning direktorlari yoki mudirlari o`z filiallaridan o`quv yili davomida 1 yoki 2 marta zo`rg'a xabar olar edi xolos. Maktablar uchun maxsus binoning yo`qligi natijasida, ba`zi maktablarning sinflari qishloqning ikki, uch joyiga tarqatib tashlangan. Bunday ahvolda maktab, sinf, dars tizimi buzilar, uni boshqarib bo`lmasdi, respublika qishloqlaridagi maktablarning ko`plarida shunday holat hukumron edi.

Respublika xalq ta`limi ishidagi eng katta muammolardan biri o`quv dasturlari va darsliklarning o`z vaqtida nashr qilinmaganligida edi. Respublika o`quv uslubiy kengashi (O`UK) faoliyatidagi ishni cho`zishga bo`lgan moyillik natijasida 1931 – 1932-o`quv yilida maktablar darslik va dasturlar bilan ta`minlanmagan, shu o`quv yilini darslik va dasturlarsiz o`tkazdilar, sinf va fan usulida o`qitish ham barbod qilingan edi. Shu o`quv yilida 213 nomdagagi darslikdan, o`quv yilining boshida faqat 17 nomdagagi darslik nashr qilingan, nashr qilingan bu darsliklar o`quv yilining ikkinchi yarmida maktablarga jo`natilgan¹.

Darsliklar nashr qilishning yo`lga qo`yilmaganligi, o`quv jarayonini tashkil etishga salbiy ta`sir qilib, dars soatlarini qisqartirishga yoki yuzaki olib borishga sabab bulardi. O`quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar o`tkazish imkoniyatlari yaratilmagan, poytaxt Toshkent shahrida ham turkman, tojik, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida birorta darslik topib bo`lmasdi, hatto o`zbek tilida ham dasrliklar topilmasdi.

O`zbekiston SSR XKS qoshidagi respublika umuta`lim qo`mitasi 1930-yilning 29-dekbridagi o`z yig'ilishida darsliklar va boshqa o`quv qurollarini

¹ Раҳмонов Т. Саводсизлик қандай келиб чиккан? // Гулистан, – 1993. – №2-3. – Б. 5-6.

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 115-116.

O`zbekiston davlat nashriyoti tomonidan noto`g`ri taqsimlanayotganligi, xususan, milliy ozchilik maktablari uchun qoniqarsiz tashkil etilganligi, ularning talab va ehtiyojlari hisobga olinmayotganligi, rayonlarda o`quv qurollari va darsliklarni tarqatishda qo`pol kamchiliklarga yo`l qo`yilayotganligi ko`rsatilgan edi, nashr etilgan kitoblar oblastlar ehtiyojlarini qondira olmayotgan edi, II bosqich maktablari uchun jo`natilgan kitoblar faqat rus tilida bo`lib, viloyatlar ehtiyojlariga mos mos kelmas edi. Umuman olganda, respublikada turli tillarda darsliklarning yaratilishi, nashr qilishning yo`lga qo`yilishidagi yutuqlar nuqson va xatoliklar bilan qorishib ketgan edi.

Darsliklarni nashr qilish bilan faqat O`zbekiston Davlat nashriyoti (O`zGIZ) ning maktablar uchun darsliklar nashr qilish bo`limi shug`ullangan. Darsliklar nashr qilishda barcha respublikalarda bir xil qolipdagi darsliklar, bir xil o`qitish usuli va bir xil usuliy tavsiyalar, maslahatlar kiritildi. Bunday usul va siyostdan norozi bo`lganlar “xalq dushmanlari”, “burjua millatchilari” deb qoralanardi. Odadta darsliklarni nashr etish rejasiga taqvim yilining oxirida tuzilar, uni tasdiqlash yilning o`rtasida amalga oshirilar, darsliklarni chiqarish esa, o`quv yilining boshiga mo`ljallanar edi. Natijada, chiqarilishi lozim bo`lgan darsliklar va adabiyotlar qo`lyozmalarni tayyorlash uchun sun`iy ravishda juda oz vaqt qoldirilar, oqibatda uni o`z vaqtida nashr etish va tarqatish muddatlari va rejalar barbod etilardi.

Rossiya maktablari uchun chiqarilgan darsliklar o`zbek tiliga tarjima qilinari va nashr etilardi, bu darsliklar ruscha atamalar bilan to`ldirilib yuborilgan bo`lib, unda mahalliy millat tili qo`pol suratda kamsitilardi, bunday usulga qarshi bo`lgan mualliflar, tarjimonlar ishdan bo`shtilib qatag`on qilingan. Respublika Xalq Ta`limi Komissarligi va nashriyotlarning rasmiy byurokratik ish usuli: grafiklar tuzish, rejalar belgilash, ularni tasdiqlashdan iborat bo`lib, natijada birinchi besh yillikda ham maktablar biror yil o`quv qo`llanmalari va darsliklar bilan to`la ta`minlanmagan.

1938-yilda O`zbekiston davlat nashriyoti va O`zbekiston qog`oz ishlab chiqarish kombinati rahbariyati “troskiychi – buxarinchi”, “xoinlar” va “milliy fashistik banda” a`zolari sifatida ishdan olinib, yangi rahbariyat tayinlangandan

keyin ham nashr qilish mo`ljallangan 22 nomdagi kitobning 12 tasigina nashr qilingan, xolos. Xulosa shundan iboratki, bunda asosiy aybdorlar xodimlar emas, balki mavjud xo`jalik mexanizmi va uning asosi ma`muriy-buyruqbozlik boshqaruvi bo`lgandi¹.

Respublikada darsliklar nashr qilishga xo`jalarcha munosabat faqat o`zbek tilidagi darsliklarga emas, balki uyg'ur, mahalliy-yahudiy va boshqa milliy tillardagi darsliklarga nisbatan munosabatda ham ko`rindi. Buning ustiga O`zbekistonagi barcha nashriyotlarning direktori o`zbek tili va boshqa mahalliy millatlar tillarini mutlaqo tushunmaydigan rusiy zabon kishilar edi. Nashriyotlar tahririyatlarida ishlayotgan kishilar qatag'on yillarida tubdan "yoshartirildi", darsliklar va usuliy adabiyotlar yaratish yo'llarini yaxshi tushunadigan, bir necha yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo`lgan olimlar ishdan chetlashtirildi.

Umuman olganda, maktablarni darsliklar va tegishli adabiyotlar bilan ta`minlash masalasi uchinchi besh yillikda ham to`la hal etilmay qoldi. 1937 – 1938-o`quv yilida 10 million nusxada 189 nomdagi darslik nashr qilish rejallashtirigan bo`lsa ham, amalda 159 nomdagi 5720 ming nusxada kitoblar nashr etildi.

Shunday qilib, respublika maktablarining darsliklar va turli o`quv qurollari bilan ta`minlash ishida mavjud bo`lgan qator nuqsonlar va g`ayriqonuniy holatlar bo`lishiga qaramasdan, darsliklar, usuliy adabiyotlar, bolalar uchun turli adabiyotlar nashr qilishning yo`lga qo`yilishi, respublika ilmiy-ma`rifiy hayotida ma`lum darajada siljish edi.

1938-yilning 3-aprelida O`zbekiston SSR Sovetlar MIQ va XKSning "O`zbekiston maktablarida va ruscha bo`lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o`rganish haqida" qarori e`lon qilindi. Y.Oxunboboyev va S.Segizboyevlarning imzolari bilan e`lon qilingan bu qarorda rus tilini o`rganishning ahamiyati va mohiyati ta`kidlanib, 1938 – 1939-o`quv yilining 1-sentyabridan boshlab O`zbekistonagi barcha o`zbek maktablarda rus tilini

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан "совет мактаби" га ўтиш.... – Б. 80.

majburiy o`rganish, boshlang`ich maktablarda ikkinchi o`qish yilidan, to`liqsiz o`rta va o`rta maktablarda uchinchi o`qish yilidan joriy qilinsin, – deyilgan edi¹. Shuningdek, O`zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligiga yangi o`quv yilidan boshlab barcha maktablarda o`quv rejalarini ko`rib chiqish, o`rta maxsus va oliv o`quv yurtlari rejalarini, dasturlarini shunga muvofiqlashtirish topshirildi.

O`zbekiston hukumatining bu qarori, sobiq SSSRdagi barcha ittifoqdosh respublikalar o`rtasida umumiy aloqa vositasi sifatida rus tilini o`rganish, o`z mohiyati jihatidan ijobiy ahamiyatga ega, ammo, O`zbekistonda 1938 – 1939-o`quv yilidan boshlab rus tilini umumiy va ommaviy tarzda o`rganish uchun shartsharoit tayyorlanmagan edi.

Respublika xalq ta`limi o`z oldidagi dolzarb muammolarni ham hal qila olmayotgandi. Respublika hukumatining ushbu qarori Moskvaning topshirig`i bilan qabul qilingan bo`lib, mavjud iqtisodiy qiyinchiliklarni yanada murakkablashtirgan. Ittifoq hukumatining, maktablarda rus tilini 1938 – 1939-o`quv yilining 1-sentyabridan o`qitishni joriy qilish haqidagi qat`iy topshirig`i o`quv rejalarini va dasturlarini taylorlash, darsliklar taylorlash, nashr qilib joylarga tarqatish, bu fanni o`qitadigan mutaxassislarni taylorashdek murakkab va og`ir vazifalarni qanday bo`lmashin 2 – 3 oy mobaynida hal qilishni talab etar edi. Respublika hukumati va Xalq ta`limi organlari bu vazifani bajarishga kirishgan bo`lsalarda, ammo belgilangan fursat mutlaqo bajarish mumkin bo`lмаган muddat edi.

O`zbekistondagi 3481 o`zbek va rus bo`lмаган milliy maktablarning 2159 tasida rus tili o`qituvchilar yo`qligi sababli, rus tilini o`rgatish imkoniyati bo`lмаган. Rus tili o`qitiladigan maktablarda ham o`qituvchilarining ixtisosligi bo`sh bo`lganligi uchun o`qitish juda sayoz, yuzaki, darsliklar, o`quv qurollari yetarli emas edi. O`zbekistonning oliv o`quv yurtlarida o`zbek, tojik, qozoq, yahudiy, qirg`iz maktablari uchun rus tili o`qituvchilarini taylorlash fakul`tetlari yo`qligi sababli 4000 dan ortiq rus tili va adabiyoti o`qituvchilarini yetishmasdi. Hatto, O`zbekiston Maorif Xalq Komissarligi qaramog`ida rus tili o`qituvchilarini

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 116.

malakasini oshirish muassaslari bo`limlari bo`lmagan. Hammasi bo`lib, O`zbekistonda rus tilini o`rganish bo`yicha 2 darslik mavjud bo`lgan, xolos. Ruscha-o`zbekcha, o`zbekcha-ruscha lug'atlar ham yo`q edi. Rus tilini o`rganish maqsadlarida xizmat qiladigan birorta ko`rgazmali qurol va jadvallar chiqarilmagan.

Gurlan rayonidagi (Xorazm) to`liqsiz o`rta maktab rus tili o`qituvchisi Xudoyberganov faqat rus tili harflarini tanigan xolos. Shofirkon, Buxoro va qator boshqa rayonlar maktablarida rus tili darslari darsiksiz, “og’zaki” olib borilgan. Respublikada rus tilini o`qitish shunday ahvolda bo`lgan paytda, rus tilini majburiy o`rganish to`g’risidagi qaror o`zgacha ma`naviy asoslar va maqsadlarga qaratilgan edi.

Ushbu qaror O`zbekistonda krill yozuvi asosidagi o`zbek alifbosiga o`tishga tayyorgarlik ketayotgan bir davrda qabul qilingan bo`lib, unga ko`ra yangi o`quv yilida rus tili uchun o`quv soatlar 2,3 baravar oshirildi, rus tili o`qituvchilar tayyorlash 4 oylik va 1,5 oylik kurslari ochilib, ularda 1660 (4 oylik kursda) va 706 (1,5 oylik kursda) rus tili o`qituvchisi tayyorlandi. Bir yarim oyda tayyorlangan 706 rus tili o`qituvchisini, albatta, mutaxassis deb bo`lmaydi, faqat raqamlar orqasidan quvishdan iborat bu siyosat, sovet hokimiyatining barcha davrlarida o`zini oqlamadi¹.

Bu qarorning yana bir tomoni, O`zbekistonga ko`plab Rossiyadan rus tili o`qituvchilarini chaqirib kelishga keng imkoniyatlar yaratib berdi. O`zbekiston KP (b) MKning aralashuvi bilan maktablar faqat shu o`quv yilida 2400 nafar rus tili o`qituvchilarga ega bo`ldilar. Har qanday xorijiy tilni o`rganish hamma uchun mutlaqo foydali, til bilish millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, til bilish xalqlar do`stligining kaliti, hamkorlik va do`stona aloqalarining muhim omili, dunyoviy bilimlarni egallashda katta ahamiyatga ega. O`rganilayotgan til, albatta, boshqa bir tilni siqib qo`yish, kamsitish uchun zo`rlab yoki majburiy kiritilmasligi kerak. Bu buyuk vositadan g’arazli maqsadlarda foydalanish esa xunuk va salbiy oqibatlarga olib keladi.

¹ Усмонова М. Н. XX асрнинг 20-30 йилларида анъанавий таълимдан “совет мактаби” га ўтиш.... – Б. 83.

O`qituvchilar mehnatini qadrlash chora-tadbirlari ham ko`rildi, 30 – yillarning oxiriga kelib, respublikada nom chiqargan o`qituvchilar; O.Sharafiddinov, M.Sharafiddinova, Belova, Borisova, Baybudiyeva, E.Sazanova, Yu.Uglitskiylar el orasiga tanilib qoldilar, ular a`lochi o`qituvchilar edilar. Alovida xizmatlari uchun O`zbekistonning 141 o`qituvchisi hukumatning oliv nishonlari bilan mukofotlangan edi. Jamiyatning asosiy kuchi bo`lgan yoshlarni sog`lom, ilmli, aqli, madaniyatli qilib tarbiyalashdek muhim vazifa o`qituvchi zimmasiga yuklatilgan, shuning uchun jamiyat va davlat xalq maorifi xodimlariga katta e`tibor berishi kerak.

O`zbekiston XKS 1930-yilning 27-dekabrida “O`qituvchilar ta`minoti to`g`risida” qaror qabul qildi bunga ko`ra, o`qtuvchilar, birinchi navbatda qishloq o`qituvchilari, ta`minot masalasida shahardagi ishchilar bilan tenglashtirilgan edi. Ayrim rayonlarda o`qituvchilar va tarbiyachilarni ta`minlashda hukumat qarorlari bajarilmayotgan edi. Respublika Maorif Xalq Komissarligi qoshidagi umumta`lim qo`mitasi ham bu ishga e`tiborsizlik bilan qarayotgan edi.

1928-yilning 28-avgustida Ittifoq hukumatining barcha tipdagi maktablar o`qituvchilari va maorif xodimlarining ish haqiga qo`shimchalar qo`shib berish to`g`risidagi qarori O`zbekistonda 1935-yilda ham joriy etilmagan edi. Oradan 7 yil o`tgach respublika hukumati 1936-yil 15-maydagи o`zining maxsus qarori bilan maktab o`qituvchilari va boshqa xodimlarining ish haqini oshirish uchun qo`shimcha mablag`lar ajratilganligini e`lon qildi. Buning ustiga qishloq o`qituvchilarini uy-joy bilan ta`minlash masalasi ham o`zibo`larchilikka tashlab qo`yilgan, ular ijtimoiy himoyadan chetda edilar.

O`zbekistonda maktab qurilishi tang bir ahvolda bo`lgan, maktablar uchun binolar mutlaqo bo`lmagan bir paytda, maktab binolari turli idoralar va tashkilotlar tomonidan egallab olingan. Yangi Urganchda yetti yillik maktab binosida okrug milisiya bo`limi joylashib olgandi, Samarqandda namunali xotin-qizlar maktabi yotoqxonasini shahar sog`liqni saqlash ambulatoriyasi egallab olgan, Farg`ona, Oqdaryo va Toshkent shaharlarida ham maktab binolari yashash joylari va idoralar sifatida foydalanilayotgan edi, bu binolar aslida eski hovlilar bo`lgan.

Maktab qurilishini jadallashtirish borasida 1937-yilning 5-avgustida O`zbekiston SSR XKS va O`z KP (b) MKning respublikada “Maktab qurilishi to`g`risida”gi qarori ijobiy ahamiyat kasb etdi¹.

Xalq maorifi sohasidagi qurilishlarning bu darajada cho`zilishiga faqat shu komissarlik va quruvchi tashkilotlarga emas, balki boshqa qator ma`sul tashkilotlarning ham katta aybi bor edi. Qovushmagan byurokratik xo`jalik mexanizmi xalq xo`jaligining hamma sohalarida bo`lganidek maktab qurilishida ham to`g`anoq bo`lib kelayotgandi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, 30-yillardan boshlab sovet hukumati ta`lim sohasida bir qator isloxtlarni amalga oshira boshladи. Xususan, O`zbekistonda 1930 – 1931-o`quv yilidan boshlab boshlang`ich majburiy ta`limning joriy qilindi. Biroq birdaniga amalga oshirila boshlagan bu islohot – katta moliyaviy sarf-xarajatlarni talab qilar edi. Keng miqyosida bolalarni maktablarga jalb qilish uchun maktablar uchun moslashtirilgan binolar yo`q, ularni qurish uchun esa avvalambor vaqt talab etilib, undan so`ng esa juda katta mablag’, qurilish ashyolari va cheksiz ishchi kuchi kerak bo`lardi. Hatto mavjud binolarni tuzatish, ta`mirlash uchun ham vositalar etishmas edi. O`qituvchi va o`quvchilarni tegishli o`quv qurollari, darsliklar va boshqa jihozlar bilan ta`minlash yo`lga qo`yilmagan edi. 1938-yilning 3-aprelida O`zbekiston SSR Sovetlar MIQ va XKSning “O`zbekiston maktablarida va ruscha bo`lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o`rganish haqida” qarori e`lon qilindi. Ammo, O`zbekistonda 1938 – 1939-o`quv yilidan boshlab rus tilini umumiylashtirish etishmas edi. O`zbekistondagi 3481 o`zbek va rus bo`lmagan milliy maktablarning 2159 tasida rus tili o`qituvchilari yo`qligi sababli, rus tilini o`rgatish imkoniyati bo`lmagan. Rus tili o`qitiladigan maktablarda ham o`qituvchilarning ixtisosligi bo`sh bo`lganligi uchun o`qitish juda sayoz, yuzaki, darsliklar, o`quv qurollari yetarli

¹ Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 118.

emas edi. Bu xolatlar isloxoatlarning amalga oshirilishida qiyinchiliklar tug'dira boshladi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasidagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Sovet hukumati 20 – yillarda ta`lim sohasida bir qator tadbirlarni amalga oshirgan bo`lsa-da, xalq ta`limi, oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimi oldida ham hali ko`plab jiddiy muammolar ko`ndalang bo`lib turardi. Maxsus o`quv qo'llanmalari, darsliklar, boshqa o`quv-uslubiy jihozlar milliylik, yurtning o`ziga xoslik jihatlaridan nihoyatda uzoq bo`lib, ular asosan Markazdan tayyorlab yuborilardi. Mahalliy professor-o`qituvchilar tarkibi nihoyatda kam bo`lganligi bois ko`pchilik fanlar va predmetlarning o`qitilishi asosan yevropalik olimlar tasarrufida edi. Oliy ta`lim tizimidagi o`qish jarayoni asosan rus tilida olib borilardi. Buning ustiga 30-yillarda avjiga mingan stalincha qatag'onlik shamshiri ko`proq milliy kadrlar boshida sindiki, bundan respublika ta`lim tizimining barcha bo`g'lnlari katta ziyon-zahmat chekdi, ancha mahrumliklarga duchor bo`ldi;

– Sovetlarning xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus sohasida yuritgan siyosatining muhim yo'naliшlaridan biri, bu oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish edi. Har qanday tuzumda bo'lgani singari, sovet hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari va ideallari ruhida tarbiyalangan, unga sadoqat bilan xizmat qiladigan ko'plab yuqori malakali, o'qimishli, ziyoli kadrlarga o'tkir ehtiyoj sezardi. 1920-yil sentabrida Toshkentda tashkil etilgan Turkiston Davlat universiteti shu maqsadga yo'naltirilgan edi. Keyinchalik, O'rta Osiyo universiteti maqomini olgan bu oliygoh o'lkada oliy ta'limni rivojlantirish, yuqori mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'ldi. Biroq, bu o'quv dargohi professor-o'qituvchilarining mutloq tarkibi yevropalik millat vakillaridan tashkil topganligidan, undagi o'qitish tizimi birinchi kundanoq faqat rus tilida olib borildi;

– 1923-yilda Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi huzurida savodsizlikni tugatish bilan shug'ullanuvchi o'lka favqulodda komissiyasi tuzildi. Respublikadagi barcha oliy o'quv yurti talabalari hamda ishchi fakul'tetlaridagi o'quvchilarining hammasini savodsizlikni tugatishga safarbar qilindi. Milliy chegaralash arafasida Turkiston Davlat universiteti yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan eng katta manbagina bo`lib qolmasdan, shu bilan birga, Markaziy Osiyoda oliy ta`lim tizimini vujudga keltirish uchun baza bo`lib qoldi;

– bu davrda mahalliy aholi yoshlari orasidan maxsus tanlab olinib, partiya, sovet va xo'jalik organlarida ishlash, sotsialistik qurilish jabhalarida aktiv faoliyat ko'rsatishga da'vat etilgan rahbariy kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Negaki, hukmron partianing "oltin fondi" hisoblangan bunday kadrlarni ko'plab tarbiyalab, voyaga yetkazish O'zbekiston sovetlar siyosatini to'laqonli o'tkazishda muhim kafolat bo`lib xizmat qilardi-da. Shu maqsadlarni ko'zda tutib 1923-yilda Turkiston kommunistik universiteti ochildi. Unda o'lkaning bo'lg'usi sovet kadrlari "markscha-lenincna" talimat negizlarini qunt bilan egallab bordilar. Shuningdek, bu davrda Turkistonda 2 ta markaziy, 5 ta viloyat va 5 ta uyezd partiya sovet maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ularda o'qiyotgan 1312 nafar tinglovchining 10 foizini xotin-qizlar tashkil etardi;

– Sovet hukumati ta'lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to'liq ravishda o'z izmiga bo'yundirish maqsadida arab alfavitiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1929-yilda arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tildi. Bundan ko'p vaqt o'tar-o'tmasdan, 1940-yilga kelib sovetlarning birdan-bir yagona orzusi bo'lgan kirillisa – rus alfaviti negiziga qurilgan yozuvga o'tildi. Birgina o'zbek yozuvini o'zgartirish borasida qo'llanilgan bunday xatti-harakatlar respublika xalq ta'limining keyingi taqdiri, istiqboli uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Eng achinarlisi, buning natijasida necha asrlar davomida xalq dahosi, buyuk bobokalonlarimiz aql-zakovati tomonidan yaratilgan beba ho ma'naviy manbalar, asarlar, risolalarini o'rghanish musnkul muammoga aylanib qoldi;

– 30 – yillardan boshlab sovet hukumati ta'lim sohasida bir qator isloxtlarni amalga oshira boshladи. Xususan, O'zbekistonda 1930 – 1931-o'quv yilidan boshlab boshlang'ich majburiy ta'limning joriy qilindi. Biroq birdaniga amalga oshirila boshlagan bu islohot – katta moliyaviy sarf-xarajatlarni talab qilar edi. Keng miqyosida bolalarni maktablarga jalb qilish uchun maktablar uchun moslashtirilgan binolar yo'q, ularni qurish uchun esa avvalambor vaqt talab etilib, undan so'ng esa juda katta mablag', qurilish ashyolari va cheksiz ishchi kuchi kerak bo'lardi. Hatto mavjud binolarni tuzatish, ta'mirlash uchun ham vositalar yetishmas edi. O'qituvchi va o'quvchilarni tegishli o'quv qurollari, darsliklar va boshqa jihozlar bilan ta`minlash yo`lga qo`yilmagan edi;

– 1938 – yilning 3-aprelida O'zbekiston SSR Sovetlar MIQ va XKSning “O'zbekiston maktablarida va ruscha bo'lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o'rghanish haqida” qarori e'lon qilindi. Ammo, O'zbekistonda 1938 – 1939-o'quv yilidan boshlab rus tilini umumiy va ommaviy tarzda o'rghanish uchun shart-sharoit tayyorlanmagan edi. O'zbekistondagi 3481 o'zbek va rus bo'lmagan milliy maktablarning 2159 tasida rus tili o'qituvchilari yo'qligi sababli, rus tilini o'rgatish imkoniyati bo'lmagan. Rus tili o'qitiladigan maktablarda ham o'qituvchilarning ixtisosligi bo'sh bo'lganligi uchun o'qitish juda sayoz, yuzaki,

darsliklar, o`quv qurollari yetarli emas edi. Bu xolatlar isloxtarlarning amalga oshirilishida qiyinchiliklar tug'dira boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 32 б.
- 1.2. Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 181 б.
- 1.3. Каримов И. А. Инсон, унинг хуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
- 1.4. Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 430 b.
- 1.6. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – 304 b.
- 1.7. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қаътий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг куналик қоидаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
- 1.8. “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги хузурида Ўзбекистоннинг Энг Янги тарихи бўйича жамоатчилик кенгашини ташкил этиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / Халқ сўзи, 2002 йил 12 февраль.

1.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори / Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

1.10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони / Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль. 28 (6722)-сони.

1.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли Қарори / Акс Садо. 2017 йил 6 апрель – 22 апрель. - №6 (73).

1.12. “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори / Халқ сўзи. – 1998 йил, 28 июль.

1.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-49-47 Фармонига илова / Lex UZ.

II. Adabiyotlar:

2.1. Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш (1867-1917 йй.). – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1961. – 150 б.

2.2. Абдуллаев Ю. Биринчи ўзбек алифбоси. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1991 йил 12 июль.

2.3. Алимова Д. Бухара конца XIX – начало XX века и зарождение джадидизма // Общественные науки в Узбекистане. – 1997. – № 9. – С. 91-93.

2.4. Аъзамхўжаев А.А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971.

2.5. Аъзамхўжаев С. Туркестон муҳторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – 168 б.

2.6. Зиёев X. З. Тарих – ўтмиш ва келажак қўзгуси. – Т.: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 288 б.

2.7. Зияева Д. XIX аср охири – XX аср бошида Туркистанда анъанавий таълим тизими муаммолари. – Т.: Ислом университети илмий - таҳлилий ахбороти, 2009. – №1. –Б. 10-12.

2.8. Раҳмонов Т. Саводсизлик қандай қелиб чиқкан? // Гулистон, – 1993. – №2-3. – Б. 5-6.

2.9. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши / Лойиха раҳбари, масъул муҳаррир Д.А.Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б.

2.10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

2.11. Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев О., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи. – Т.: Шарқ, 1998.

2.12. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O'. Vatan tarixi. 2-kitob. – Т.: Sharq, 2010. – 365 b.